

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

Soyibjonov Jasurbekning

O‘RTA OSIYODA QUBROVIYA TARIQATINING VUJUDGA
KELISHI TARIXIDAN

5120300 – «Tarix» (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun

Bitiruv malakaviy ishi

Ish rahbari:

M.Z.Radjapova

O‘zbekiston tarixi kafedrası

katta o‘qituvchisi

Andijon-2017

Mundarija

Kirish.....	
I.BOB Qubroviylik-tasavvufning mashhur tariqatlaridan biri.	
1.1 Najmiddin Qubro- qubroviylik tariqati asoschi, tafakkuriy bilim bilan karomatni uyg'unlashtirgan mutasavvif alloma.....	
1.2 Najmiddin Qubro- tarixda o'chmas iz qoldirgan milliy qahramon sifatida.....	
II.BOB Najmiddin Qubroning boy ma'naviy merosi-barkamol avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda ibrat namunasi.	
2.1 Ruhiy kamolotning o'n qoidasi, "Ofoq va anfus" falsafasi.....	
2.2 Najmiddin Qubroning "Latoif" nazariyasi va uning bugungi kundagi ahamiyati.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	
Ilovalar.....	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Sof islomiy e'tiqod egalarini tarbiyalash va ular orqali keng xalq ommasi ongiga dinimizning ezgu tushunchalarini yetkazish va turli adashgan oqimlarga qarshi kurashish bugungi kunda yuksak vazifaga aylandi.

Yosh avlodlarni intellektual yetuk, diniy va zamonaviy bilimlarga ega, shuning bilan birga boy tarixiy o'tmishdan habardor avlod bo'lib kamol topishida, ajdodlarimiz qoldirib ketgan ulkan ilmiy merosni o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sof islom aqidasi o'rganish "o'rgatish va dinimizning bunyodkorligini ko'rsatib berish mavzuning dolzarbligini, zamon talabi ekanligini isbotlaydi.

Mavzuning o'rganish darajasi. Jahon ilm- fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan allomalarimiz nomlari abadiylashtirilib, ilmiy meroslari o'rganilmoqda. Bitiruv malakaviy ish yozish jarayonida Najmiddin Kubro va uning nazariyasi quyidagi adabiyotlarda o'rganilgan va yoritilgan:

Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-xakoyiq. (Haqiqatlar kaymog'i) Fors tilidan N.Komilov tarjimasi. - T.: "Kamalak", 1995; *Alisher Navoiy*. Nasoyim ul-muxabbat min shamoyim ul-futuvvat. Mu-kammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 17-jild Nashrga tayyorlovchi: S. G'anieva, M.Mirzaaxmedova. Arab va fors matnini tarjima kilib, nashrga tayyorlovchi va mae. muh. S.Rafiddinov. - T.: "Fan", 2001.; *Bertels E.E.* Sufizm i sufiyskaya literatura. - M.: "Nauka", 1965.; *Komilov N.* Najmiddin Kubro. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995.; *Komilov N.* Tasavvuf yoxud komi l inson axloqi. 1-kitob. - T.: "Yozuvchi", 1996.; *Shayx Najmiddin Kubro*. Tasavvufiy xayot Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: I.Hakkul, A.Bektosh. Mas'ul muxarrir: S.Sayfullox. - T.: "Movarounnahr", 2004.; Ishoqova Zamira. Shayx Najmiddin Kubro. Toshkent., "O'zbekiston". 2013. Tarix va shaxs ruknida chop etilgan risola.

Ishning maqsad va vazifalari. Najmiddin Qubroning boy ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq etish orqali tariximiz, mdaniyatimiz, milliy qadryatlarimizning naqadar mumtoz va ulug'vorligi, u zotning hayoti o'zligini anglab yetgan inson uchun ibrat va saboq ekanligini yana bir bor keng ommaga yetkazishdir.

Ishning maqsad va vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyatda ahloqiy-ruhiy kamolotni shakllantiruvchi vositalardan biri tasavvuf yo'li ekanligi;
- Ajdodlar merosni o'rganish millatimiz kelajagi uchun qo'yilgan poydevor ekanligi;
- Najmiddin Qubro butun umr inson pokligi, ilohiy ma'rifat uchun kurashganligi;
- Najmiddin Qubro dunyoviylik bilan ilohiylikni uyg'unlashtirgan, mardlik va ma'naviy yuksalishdan saboq berganligi;
- Najmiddin Qubro xalqimizni iymon, halollik va vijdon bilan ish ko'rishida, barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviy ibrat namunasi ekanligini manbalarga tayangan holda ilmiy tahlil qilish, hamda talabalarga yetkazishdan iborat.

Ishning ob'ekti va predmeti. Ishning ob'ektini tasavvuf nazariyasi tashkil etib, predmeti esa Najmiddin Qubro nazariyasining tasavvufdagi irfon falsafasi rivojiga qo'shgan hissasidir.

Ishning ilmiy yangiligi. Malakaviy bitiruv ishi mavzusi doirasida ayrim maqolalar, risolalar chop etilgan bo'lsa-da, talabalar tomonidan Najmiddin Qubro merosi keng qamrovli o'rganilgan emas. Bitiruv ishida Najmiddin Qubroning ustozlari, muridlari uning "ofiq va anfus", "Latoif" nazariyalari, uning vatanparvarlik jasorati, tariqat yo'li, tariqatdagi o'n asosi (qoida), hatto uning she'riy tasavvufdagi ijodi o'z aksini topgan.

Ishning amaliy ahamiyati. Milliy ma'naviy merosimizga, tasavvufga qiziquvchlar uchun, 5120300 Tarix (mamlakatlar va mintaqalar) ta'lim yo'nalishi talabalari va magistrarlari uchun ahamiyati katta. Ishning ahamiyati

yana shundan iboratki, bugun ham hukumatimizning dinu-diyonatimizni tiklash, xalqimizni ma'rifatli qilishga qaratilgan izchil islohotlari ahamiytini tushunmaydigan, ularga bepisand munosabatda bo'ladigan, ularning dinparvar va insonparvar mohiyatidan o'z shaxsiy manfaatlarini qondirish, shon-shuhrat qozonish maqsadida foydalanishga urinadiganlarga qarshi, ma'naviy komillikka chorlovchi, ezgulik, vatanparvarlik g'oyalarini vatandoshlarimiz, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir.

Ishning tuzilishi. Kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I.BOB Qubroviylik - tasavvufning mashhur tariqatlaridan biri.

1.1 Najmiddin Qubro - qubroviylik tariqati asoschi, tafakkuriy bilim bilan karomatni uyg'unlashtirgan mutasavvif alloma.

Tasavvufning mashhur tariqatlaridan biri bo'lgan qubroviylik Xorazm zaminida vujudga keldi. Uning asoschisi - millat va dinning porloq yulduzi, o'z zamonasining qutbi deya ulug'langan buyuk vatanparvar, xivalik shayx Najmiddin Kubrodir.

Buyuk tariqat peshvosi, "ofok va anfus" nazariyasi asoschisi shayx Najmiddin Kubroning boy ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq etish orqali gariximiz, madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizning naqadar mumtoz va ulug'vorligi, u zotning hayoti o'zligini anglab etgan inson uchun ibrat va sabok ekanligini xis etamiz. Shayxning so'zlari qalblarga fayz va shukux olib kirgan, "o'lgan kalb"lar tirilgan, xar bir go'sha, har bir ko'ngilga ilohiy kalom kirib borgan. Zero, insonning yashashdan maqsadi moddiy boyliklardan iborat emas, balki ma'rifat va ruxiy boylik xam lozim. Chunki ma'naviy kashshok xalqning davlati qanchalik boy bo'lmasin, zalolatga maxkumdur.

Jamiyatda axloqiy-ruhiy kamolotni shakllantiruvchi vositalardan biri tasavvuf yo'li bo'lsa, ajdodlar merosini o'rganish millatimiz kelajagi uchun ko'yilajak poydevordir. Payg'ambarimizning *"Ilmni Chinda bo'lsa ham izlang"*, *"Beshikdan to habrgacha ilm shlang"* xadislarini hayotining mazmuniga aylantirgan Najmiddin Kubro diniy-tasavvufiy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, zamonasining barcha ilmlarini sidqidildan o'zlashtirish yo'lida har qanday mashakkatni engdi. Kalom va hadis ilmining etuk bilimdoni, orif va valiy zot sifatida tanildi. Najmiddin Kubroning ilm-fanning turli sohalariga oid asarlari mavjud¹.

Najmiddin Kubro butun umr inson pokligi, ilohiy ma'rifat uchun kurashdi, dunyoviylik bilan ilohiylikni uyg'unlashtirdi, mardlik va ma'naviy yuksalishdan saboq berdi. Shu bois Najmiddin Kubro merosi qadrlanib, avlodlar e'zosi,

xurmat-e'tiboriga sazovor bo'ldi. Shayx Najmiddin Kubro xalqimizni iymon, halollik va vijdon bilan ish ko'rishida, barkamol avlodni vatanparvarlik va insonparvarlik ruxida tarbiyalashda ma'naviy ibrat namunasi bo'lib qoldi.

Ko'hna Xorazm azaldan ilmu irfon beshigi, fan va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lgan. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, har kanday yurt o'zining buyuk farzandlari, shu zaminda yashab o'tgan aziz-avliyolari bilan tabarruk va mukaddasdir. Xorazm zaminida bunday insonlar ko'p o'tganki, ularning tabarruk nomlarini, bebaxo merosi va ma'naviyat xazinasiga ko'shgan xissasini xar tomonlama o'rganish, shuningdek, ularni keng ommaga tanishtirish, ularning ma'naviy qudratimiz ramzi va donishmandlik timsoli ekanligini ta'kidlash muhimdir. Ana shunday siymolardan biri - Shayx Najmiddin Kubrodir. Shayx (keksa, oqsoqol) tariqatda valoyatning yuqori darajasiga erishgan valiylarga nisbatan ko'llaniladigan unvondir.

Najmiddin Kubro tafakkuriy bilim bilan karomatni uyg'unlashtirgan, tasavvufdagi irfon falsafasi rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan, *"zamonasidagi avliyo va murshidlarning komili, yuksak matsomlarga, zotiy-sifatiy tajalliylarga erishgan, shuningdek, malakut olamida ko'rish, jabarut olamida uchish, lohut olamida tavhid va hatsoyitslarga erishgan, kalb dunyosida gars bo'lgan edi"*¹.

Shayxning to'liq nomi Ahmad ibn Umar Abuljannob Najmiddin Kubro Xevakiy Xorazmiydir. SHayx "Kubro", "Tommat ul-Kubro", "Najmiddin", "Abuljannob", "Valiytarosh" sifatlari bilan ulug'langan. Shayx Kubro behad ziyrakligi va yuksak aql-zakovati tufayli xar kanday muammoli masalalarni osonlik bilan xal qilib bergan, xamda u zot bilan bahs va munozara qilinsa, xamisha xaq bo'lib chiqqan. Shuning uchun ismiga "Kubro" nomini qo'shish bilan birga u zotni buyuk baloyu, kazoning oldini oluvchi, xaloskor, ya'ni "Tommat ul-kubro" deb xam atashgan.

¹ Исҳокова Замира. Шайх Нажмиддин Кубро. Тошкент., "O'zbekiston". 2013. 7-bet

Fors-tojik shoiri, o'z davrining mutasavvif allomasi Abdurahmon Jomiy (vaf. 1492 y.) "Nafahot ul-uns min xazarot il-quds" ("Mukaddas dargohdan esuvchi do'stlik shabadalari") asarida extirom bilan kayd etishicha, Najmiddin Kubro yoshligidan ilmu hikmatta qiziqkan, yuksak iqtidor sohibi bo'lgan. SHayx islom asoslari, shariat ilmlarini o'zlashtirgach, Xorazmda din ilmlari bo'yicha tengsiz alloma bo'lib etishgan. "Tommat ul-kubro", ya'ni ulamolarning etugi, ulug'vori va "ilm balosi" degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan.

Shayx "valiytarosh" ("valiylar-ni parvarishlab etkazuvchi") deb ulug'lanishining boisi Najmiddin Kubroning nazari shu qadar o'tkir bo'lganki, qalbida ilxom-vajd jo'sh urgan paytda kimga nazari tushsa, valiylik martabasini topar, ilohiy sirlar kashshofiga aylanar ekan.

"Najmiddin" - "dinning yulduzi" degan ma'noni bersa, "Abuljan-nob" Najmiddin Kubroning kuniyati hisoblanib, "dunyodan parhez kilgan takvodorning otasi" degan ma'noda qo'llanilgan, ya'ni shayx *"taqvo va tavba posboni"* deb ulug'langan. Rivoyat kilinishicha, Najmiddin Kubro Iskandariya shaxrida hadis ilmini o'rganib qaytayotib, bir kecha Muxammad (s.a.v.)ni tushida ko'radi va u zotdan "Menga kuniyat bag'ishlang" deb so'raydi. Hazrati Payg'ambar Najmiddinga: *"Sening kuniyating Abuljannob - dunyodan parhez etuvchi bo'ladi"*, deb marxamat kiladilar. Bu bashoratdan so'ng Najmiddin tasavvufga yuzlanadi...

Najmiddin Kubroning xayoti, so'fiylik tarikati va faoliyatiga oid ma'lumotlar Doroshukuhning "Safinat ul-avliyo", Rizoqulixon Hidoyatning "Riyoz ul-orifin", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Mavlaviy G'ulom Sarvar Soxib Loxuriyning "Xazinat ul-asfiyo", Xoji Xalifaning "Tuhfat ul-fuqaro", Abduraxmon Jomiyning "Nafaxot ul-uns", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat", Davlatshox Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Hamdullox Qazviniyning "Tarixi guzida", Sulton Husayn ibn Sulton Mansur ibn Boykaroning "Majolis ul-ushshoq", Mavloni Minxojiddinning "Tabakoti Nosiriy" asarlarida keltirilgan. SHuningdek, Najmiddin Kubroning xayoti, karomatlari, qaxramonliklari xakida xalq orasida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud bo'lib, manokiblarda shayxning tarjimai holi bilan birga u zotning karomatlari xam bayon qilingan.

Rus sharkshunos olimi E.E.Bertels Najmiddin Kubroning tarjimai holini ilk bor tadbik etib, shayxni "o'z davrining yorokin shaxslaridan biri" deb ta'riflagan. Ayrim tarixiy shaxslar va sanalardagi chal-kashliklarni izohlab, 25 ta ruboiy va "*Shayx Najmiddin Kubro sissasi*" manqibini e'lon qilgan¹.

Tasavvuf - komillik yo'li, milliy, ma'naviy meros, umuminsoniy qadriyat hamdir. Tasavvuf insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi falsafiy ta'limotlar bilan uzviy bog'langan. Tasavvuf insonning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni, xalollik, mehnat, vijdon, iymon kabi xislatlarni falsafiy tahlil etishning o'ziga xos yo'li bo'lsa, Najmiddin Kubro yangi yo'nalishga asos solgan buyuk mutafakkir allomadir.

Axmad ibn Umar ibn Muhammad al-Xevakiy al-Xorazmiy 1145 yilda Xiva shaxrida dunyoga kelgan. Otasi o'z davrining ziyoli kishilaridan bo'lgan. Ilmga chanqoq Najmiddin Kubro madrasani tugatgach, o'n olti yoshlarida bilimni oshirish maqsadida Eron, Misr, Shom va Iroq mamlakatlarida bo'lib, xadis va fiqh ilmi bilimdonlari suxbatida bo'lgan. Nomdor olimning ovozasini eshitishi bilan yo'lga tushib, undan sidqidildan sabok olgan. Ustozdan ko'ngli to'lmagan xol-larda, undan ijozat olib, yana yo'lga tushgan.

Shayxning shogirdi, Xuroson tasavvuf maktabi namoyandasi Rukniddin Alouddavlaning zikr etishicha, Najmiddin Kubro Hamadon shaxrida mashxur muhaddisidan xadis ilmini o'rganayotgan paytda, Iskandariya shaxrida "*oliy sanadlar bilan hadis biladigan*" muxaddis borligini eshitib, Hamadondagi ustozidan ruxsat olib, zudlik bilan Iskandariyaga jo'naydi hamda bir oy ichida ilmini puxtalab, ustoz allomadan "*ijozat xati*" olib ortiga qaytadi.

Najmiddin Kubro Bag'dod, Tabriz, Nishopur, Tue, Dizful shaxarlarida o'z davrining mutakallim va alloma-laridan shariat ilmi, xadis va tafsirni chuqur o'zlashtirib, donishmand mutafakkir bo'lib etishadi. Lekin egallagan ilmlaridan konikmasdan, kalbida kechayotgan ruxiy iztirob va g'alayonni

¹ Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. - М., "Наука" 1965 Ст. 324-334

anglashga harakat qiladi. Tabrizda Najmiddin Kubro hayotida keskin burilish sodir bo'ladi. Najmiddin Kubro Abu Mansur Xafdash xuzurida xadis ilmdan sabok olardi. Bir kuni madrasaga darvesh kirib keladi. Unga ko'zi tushishi bilan Najmiddin Kubro qalbida yana g'alayon qo'zg'aladi. Saboqdoshlaridan darveshning kimligini so'raydi. Shu kecha betoqat va bekaror bo'lib, uxlamay chikadi va erta tongda xonadoshini uyg'otib, Bobo Farajning oldiga borishga ko'ndiradi va birgalashib xonaqoxga yo'l oladilar. Xizmatkor ularni kutib oladi va bu xaqda piriga xabar beradi. Bobo Faraj: *"Alloh dargohidan kelganday kirsalar, mayli, kirsinlar"* dey-di. Najmiddin Kubro vajd holida o'ylab o'tirmasdan, Bobo Farajning aytgani bo'yicha kiyimlarini echib, uning huzuriga kiradi. Bobo Faraj biror soatlardan keyin o'ziga kelib, o'rnidan turadi va Najmiddin Kubroni ko'rib, to'nini echib uning ustiga yopadi. Bu to'n Najmiddin uchun muborak tuhfa ediki, shu ondan boshlab, uning kalbi yorishib, *"Haqdan o'zga barcha narsa yuragidan sidirilib tashlanganday bo'ladi"*. Keyinchalik bu mulokatni xotirlagan shayx Kubro shunday yozgan edi: *"Bobo Farajning oldiga kirganimda bir oz vatst o'tgandan keyin unda ajib o'zgarish yuz berib, yirtits to'nining yoritslaridan nur tarala boshladi"*.

Bobo Faraj Najmiddin Kubro bilan suhbat qurib, uning aqlu zakovati takomilga etganini anglaydi va daftaru kitoblarni yig'ishtirib, mutolaani to'xtatishni va tasavvuf bilan shug'ullanish lozimligini uqtiradi.

Xonakoxdan chiqqanidan so'ng Najmiddin Kubroning ko'nglidan "Sharh us-sunna"dan bir necha varaq qoldi, uni tugatib qo'yaman" degan fikrlar o'tadi. Ustozi Abu Mansur xam avval sabokni tugatishini aytadi. Najmiddin ustozining maslaxati bilan sabokni davom ettiradi. Shu payt madrasaga Bobo Faraj kirib kelib: *"Hozirgina "ilm ul-yaqin"dan ming farsah uzotlashgan eding, endi yana ilm soshiga keldingmi?"*, - deb malomat qiladi va tanbeh beradi.

Bobo Farajning karomati ta'sirida saboq olishni yig'ishtirib, astoydil tasavvufga beriladi, riyozat va xilvat bilan mashg'ul bo'ladi. Shu tariqa qalbida nodir ilohiy tuyg'ular paydo bo'ladi. Laduniy ilmdan zavqqa to'lgan Najmiddin Kubro bu hayratangiz holatlarni yozish uchun o'tirganida uning oldiga Bobo Faraj

kelib, ko'ngilni barcha tashvishlardan xoli qilib, xotirjamlik bilan botiniy ibodat bilan shug'ullanishni tayinlaydi.

Bobo Faraj shariat ilmini chukur bilgan va kamolotning haqiqat darajasidagi pir bo'lib, Najmiddin Kubroning boshkdlar yozgan kitoblardagi bilimlarni bir chetga surib, o'zi ilohiy bilimlar koniga, ijodkoriga aylanishini, uning zohiriy-aqliy bilim bilan cheklanib krlmasdan, botiniy-vajdiy bilimlarni egallash-ga rag'batini oshirgan.

Shayx Kubro botiniy olamini yanada ravshanlashtirish uchun piri murshid qidirishga tushadi. Abdurahmon Jo-miy "Nafahot ul-uns" asarida Najmiddin Kubroning *"donishmand kishi bo'lgani va hech kimga bo'yin egmagani"* sababli o'ziga munosib piri murshid topishga kiynalganligini aytgan. Bu haqda shayxning o'zi shunday yozgan:

*Jahon ichra mango yo'l ko'rsaturga
bir habibim yo'q,
Agar bo'lsa habib, ondin maning
zarra nasibim yo'q¹.*

Shariat ilmlarini o'rganish barobarida Najmiddin Kubro tariqatdan xabardor bo'lishga intilib, qator shayxlar, darveshlar suhbatidan baxramand bo'ladi. Chunki shayxning ma'naviy kamolot ilmi, g'ayb asrori, karomat va kashfu hol ilmi bo'lgan tasavvufga ishtiyoqi baland edi. Uning ustozlari Shayx Ro'zbehon Misriy (vaf. 1189Y.), Shayx Ammor Yosir (vaf. 1187 y.) va Shayx Ismoil Qasriy (vaf. 1193Y.) xam uning bu intilishini anglaganlar va zimdan qo'llab-quvvatlaganlar. Biroq tasavvufda riyozat chekmay, vajdiy xolatlar sirini kashf etmasdan maqsadga erishib bo'lmasligini e'tiborga olsak, ular Najmiddin Kubrodagi zohiriy bilimlarga mahliyolik kayfiyati va fikrlarini bartaraf etib, xilvat o'tirish, muroqabaga beri-lish, zikru samo'ga qatnashish orqali yangicha ruhiy-hissiy xolatlar bilan yashashga, yangicha hayot tarzini kabul kilishga o'rgatadilar.

¹ Исҳоқова З.. Шайх Нажмиддин Кубро. Тошкент., "O'zbekiston" 2013 16-bet

Shayxlar tarbiyasini olgandan keyin Najmiddin endi olamga boshqacha karaydigan, ilhom-iste'dodi chashmalari ko'zi ochilgan, basirat nazari quvvat topgan orifga aylanadi. Uning kamolot martabasi ko'tariladi va fakat kitoblardagi kitoblardagi bilimlarni takrorlaydigan olimlar toifasidan kutulib, erkin-ozod mushohada etadigan, o'zi ilohiy qikmat ayta oladigan va islomning botiniy mohiyatini teran idrok etib, vaxdat va tavhidni butun vujudi bilan, tafakkuriy idroki bilan his etib, bu bilimlarni boshqalarga etkaza oladigan buyuk ma'rifatparvar shayx martabasiga erishadi.

Najmiddin Kubro Misrda Shayx Ro'zbehon Misriyga murid tushib, tariqat odobini o'rgangan. Ro'zbehon Misriy Najmiddin Kubroni o'z o'g'lidek yaxshi ko'rib, alohida mehr bilan tarbiya qilgan va qizini nikohlab berib, o'ziga kuyov qilib olgan edi. *"Shayx Najmiddin Kubroni shahid silib, shaxri Xorazmni xarob qilg'oning bayoni"* qissasida Najmiddinning pir izlashi va suluk mashaqqatlari tafsilotlar bilan boyitilgan. Chunonchi, qissadagi rivoyatga ko'ra, Najmiddin Kubro Xorazmdan yo'lga chikib, turli mamlakatlarda bo'ladi, ko'p shayxlar bilan suhbatlashadi. Ammo ko'ngliga yoqqan pirni topolmaydi. Oxiri noumidlik kayfiyatida Bag'dodga etib keladi. Bu erda u Shayx Ibrohim xonaqohida sulukni davom ettiradi, etti yil muttasil Shayx xizmatida bo'lib, bir farzandday unga bog'lanib qoladi. Bir kun Shayx Ibroqim tahorat olmoqchi bo'lganda Najmiddin oftobada suv keltiradi va shayx oyoqlarini yuvayotganda suv quyib turadi. SHayxning muxabbati jo'shib, Najmiddinga tahorat kilingan suvdan olib ichishni buyuradi. Najmiddin suvdan olib ichgandan keyin botiniy ma'rifat va ilohiy ilxom nasibasiga erishadi. Bir necha kun o'tgandan keyin Shayx Ibroxim taxorat olayotganda, Najmiddin yana xizmatda bo'lib, Shayx Ibroxim taxoratning bir koidasi - "daf'i vasvasani" tashlab ketganini kuzatadi va ko'nglidan "SHayx mustaxabni tashlab ketdi" degan fikr o'tadi. SHayx Ibrohim basirat ko'zi bilan Najmiddin holidan ogox bo'lib, u ni koyigan va Bistom shaxriga, Shayx Ismoil xuzuriga adab o'rganish uchun jo'natgan ekan.

Najmiddin Kubro Hamadon shahrida Shayx Ammor Yosir xuzuriga borib, uning xizmatida bo‘ladi. Ammor Yosir uning takabburligi va aklidagi noqislikni bartaraf etish uchun Shayx Ismoil Kasriy tarbiyasiga yuboradi.

Najmiddin Kubro SHayx Ismoil Kasriyning taxoratning bir koidasini unutib bajarmagani uchun unga shubha bilan qaraydiki, uning nazarida shariat qoidalari, rasm-rusumlariga qat’iy amal kilishlik shart, riyozat chekib, botiniy maylga berilish sog‘lom aqlga zid edi.

Bir kecha uning ko‘nglidan *"Ey Najmiddin, botin ilmidan xabar topding, zohiriy ilming shayxnikidan ziyoddir"* degan fikr kechadi. SHayx Ismoil Najmiddinning ko‘nglida kechgan fikr dan voqif bo‘lib, uni do‘sti Shayx Ammor Yosir oldiga yuborib, tanbeh bermokchi bo‘ladi. Najmiddin Kubro buni anglagan xolda, karshilik bildirmay safarga otlanadi. Shayx Ammor xuzuriga borib, sulukni davom ettiradi. Lekin o‘z ilmiga bino qo‘yish, takabburlik, shayx ilmini mensimaslik xayoli bu erda xam ko‘nglidan o‘tadi.

Najmiddin Kubro *"Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalol"* ("Jamol xushbo‘yliklari va jalol kashfi") asarida Shayx Ammorning ruxsati bilan uzlatga chekinib, bir o‘zi tanho Alloh yodida zikr tushirish, kalbni dunyoviy talab-andishalardan poklash uchun xilvat (chilla o‘tirish - Z.I.) ga kirishni niyat kilgani, ammo xayolida: *"Zohiriy ilmlarni puxta egallaganman, agar gaybiy ilmlar eshigi ochilsa, bu ilmni minbarlarga olib chiqib, X,ah toliblariga etkazaman"* degan niyat paydo bo‘lgani, ana shu fikr bilan xilvatga kimgach, biror natijaga erisholmay, kdytib chiqqani, Shayx Ammor uning bu ahvolidan voqif bo‘lib *"Avval niyatingni tuzat, keyin xilvatga kir"* deb nasihat qilganini yozgan. Pirining so‘zidan ta’sirlangan Najmiddinning qalbiga nur porlab kimganday bo‘ladi va bor bisotini fakirlarga tarkatadi. Egnida bir jubba (po‘stin) qolgach, kat’iy azmu qaror bilan deydi: *"Bu xilvatxona mening sabrim, bu jubba mening kafanim va mening boshha boradigan makonim yo‘q"*. SHayx unga *"Niyating butun bo‘ldi, endi xilvatga kirishing mumkin"* deb xilvatga ijozat beradi. Najmiddin Kubro bu xaqda yozadi: *"Shundan keyin xilvatga kimganimda ajoyibot sodir bo‘ldi - hol martabasi itmomi (nihoyasi)ga*

*erishdim. Shayx barakati va hamiyati tufayli menga ma'rifat futuhoti eshiklari ochildi"*¹.

Najmiddin Kubroga ustozlik qilgan uch piri komil - Ro'zbehon Misriy, Ammor Yosir va Ismoil Kasriylar kalb saxovati bilan birga murid tarbiyasida qattikdo'l bo'lish, botiniy ko'z bilan muridning xayollari, ruhiyatini uqib olish va ruhiy ta'sir o'tkazishga qobiliyatli ilmi hol egalari bo'lganlar. Shayx Ammor Yosir *"noqislarni takmil etish va muridlarni tarbiyalashda, ularning tushlari va fikrlarini ta'bir etishda, ikkilanishlarni bartaraf etishda shuhrat qozongan"* bo'lsa, Shayx Ro'zbehon Misriy *"aksar vatst istigrots matsomida bo'lib"*, vajd va ilhom ichida yurar, ilohiy ma'rifatdan zavqi toshib, bu xolatni muridlarga yuqtirardi. Shayx Ismoil Qasriy raksu samo', imo-ishoralar yo'li bilan murid kalbini rom etib, botini poklash va shu orkali ilohiyotga cheksiz muxabbatni singdirishda mashhur bo'lgan. Har uchala shayx xam tarikatni shariatdan tashqari tasavvur kilmaganlar, aksincha, *shariatni tariqatning zoxiri, taritsatni shariatning botini* deb bilganlar.

Najmiddin Kubro ma'rifat ilmidan to'la bahramand bo'lgach, kamolot martabasi oshib, valoyat darajasiga ko'tariladi. Shayx Ismoil unga "irodat xirqasi"ni kiydirib, Xorazmga qaytishni va u yerda tarikatni joriy etishni buyuradi. Najmiddin Kubro yana bir marta Shayx Ro'zbexonning imtihonidan o'tadi. Shayx uning tariqat odobining nozik jixatlarigacha o'zlashtirganiga kanoat hosil qiladi va Xorazm xalqini irshod etish uchun vataniga yuboradi.

Xorazmda mo'ʻtaziliy mazhabi rivoj topgani uchun, Najmiddin Kubro avval xajga borishni, keyin tariqatni yoyishni reja qiladi. Bir necha muddat Halabda yashab, 1185 yilda oilasi bilan Xorazmga keladi. Bu vaqtda shayx kirq yoshlarda bo'lib, Najmiddin Kubro yigirma besh yildan ortiq umrini ilm tahsiliga bag'ishlagan, og'ir va mashaqqatli yetuklik va komillik yo'lini bosib o'tgan edi. Najmiddin Kubro oliy maqsad manziliga etgan, boshqalar qalbini dinu diyonat, shariat va tariqat, ma'rifat va xaqiqat chashmalaridan qondirishga kodir murshidi komil, qalbi va ruhoniyyatida Jayhun daryosi kabi muazzam kenglik fayzi kamol

¹ Исҳоқова З.. Шайх Нажмиддин Кубро. Тошкент., "O'zbekiston" 2013 21-22bet

topgan, ko'ngillarga ilohiy nur taratuvchi *"ma'rifat va haqiqat ummoni"*ga aylangan edi.

Xorazm ahli Shayx Najmiddin Kubroni ixlos bilan kabul qilib, uning tariqatiga e'tiqod qo'yadi. Najmiddin Kubro Xorazmda katta xonaqox qurdirib, tariqatda yangi bir yo'nalish - "At-tariqat uz-zahabiya" ("Oltin tariqat") nomi bilan mashxur bo'lgan kubroviylik silsilasini asoslaydi.

Tariqatning bosh maksadi kishilar qalbidan nafs ammora (yomonlikka undovchi nafs) extiroslarini siqib chikarish, ruhiy-ma'naviy kamolotga da'vat etish, ko'ngilga mardlik, poklik, sidqu safo g'oyalarini singdirish, ilohiy ma'rifat nuridan bahramand etish bo'lgan. Shayx Najmiddin Kubroning qo'li ostida turli tabaqa va toifaga mansub yuzlab muridlar tarbiyalanib, islom ma'rifati va irfon ilmidan baxra olganlar. Najmiddin Kubro shogirdlarini ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da'vat etgan.

Najmiddin Kubro tabiatida donishmandlik, mantik va majzublik uyg'unlashib ketganki, uning so'fiyona amallari va karashlarida xam xilma-xil tomonlar ko'zga tashlanadi. Xonaqoxda xilvatnishinlik va chilla o'tirish xam, botiniy-hafiy zikr, qizg'in bahs-munozara ham, samo majlislari xam bo'lib turgan, Kubro murid tarbiyasiga aloxida e'tibor qaratib, ularning qaysi mazhab va oqimdan bo'lishidan qat'iy nazar, ma'naviy yuksalishi hamda tariqat ilmini chukur egallashi uchun ilohiy fayz orqali ta'sir ko'rsatgan.

Najmiddin Kubro hamisha bir holatda bo'lmagan, ba'zan birdan jo'shib, o'zga kayfiyatga kirib, vujudi balqib ketgan. Ba'zan hazin va o'ychan, g'oyat kamgap bo'lib kolgan bo'lsa, ba'zan xushchakchaq va ochiq chexra bilan suhbatga berilgan. G'oyat nozik did va o'tkir so'zlar bilan muridlar qalbiga olovli cho'g' tashlab, turli ishoralar, harakatlar, ruhiy karomatlar orqali atrofdagilarni hayratga solgan. Shayx bag'oyat zukko, salobatli, haybatli kishi bo'lgan. Kechalari ak-sar bedor o'tirib, ibodat qilgan. Surunkali ro'za tutishni odat qilib, ilxomli damlarda xonaqoh xovlisini kezib, xushnud sayr etgan. O'z nafs bilan hisob-kitob qilishni *eng yaxshi xisob-kitob* deb xisoblagan.

Shayx Najmiddin Kubro asos solgan tariqatning o'ziga xos jihatlari uning dunyoqarashida xam, amaliy ishlarida ham ko'zga tashlanadi. Najmiddin Kubro Muhammad (s.a.v.)ning *"O'lmasdan burun o'lingiz"* xadisining mohiyatini tariqat yo'lining ixtiyoriyligi va ko'ngilliligi bilan bog'laydi. *"Tabiiy ravishda o'lib, ruhni badan-dan tparak etptirish, o'lim va hayot yara-tilish ibtidosidan to so'nggi nafas-gacha insonda yashiringan, inson Xaq murodinı o'z mahsadi bo'yicha ixti-yor etishi kerak, zero, o'lim hahitsiy hayotning natijasidir"*¹.

Najmiddin Kubro *"Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim"* asarida shunday yozadi: *"Dunyoning bir hismini kezib, barcha narsalarning achchiq chuchugini tatib ko'rdim. Kitoblarni tekshirib chiqib, olimlar xizmatida bo'ldim. Dunyo istab umrimni bekorga o'tkazdim. Ko'p ajoyib narsalar-ni ko'zdan kechirib oldimki, eng tez o'tib, eng tez zavol topadigan narsa umr va dunyo ekan. X,ech bir narsani o'lim va oxiratdan yasinrots, hech bir narsani umid istakdan uzoqroq va xech bir narsani ta'anniy yaxshiroq ko'rmadim"*.

Najmiddin Kubro nafsning pokizaligi faqat payg'ambarlarga va ko'ngilning tirikligi avliyolarga xos ekanligi, har qancha qidirilsa xam, tinchlik va rohat dunyodan voz kechish va uni tark etishdan boshqa narsada emasligi, Ollox bilan unsu-ulfatda bo'lish fakat odamlardan uzilib, go'shada o'tirish, shaytonga karshi ku-rash insonning o'z nafsiga qarshilik va unga dushmanlik bildirish yo'li bilan amalga oshishini e'tirof etgan.

Najmiddin Kubro aql va nafsni bir-biriga kiyoslab, akl bilan nafsni ikki azaliy dushmanlarga o'xshatadi, ya'ni ularning qar biri o'z qo'lida yalang'och kilich tutib, ikkinchisini o'ldirishga shaylanib, bir lahza ham bir-biridan ko'z uzmaydi. Qay birini g'aflat bossa, o'sha zaxoti mag'lubiyatga uchraydi. O'z nafsiga zolim bo'lgan kishi uning sharri, yomon-ligidan kutulib, xiyla va makrlardan chetda qoladi. Buyuk Al lox shunday marhamat kilgan: *"Va miuqum zolimun li nafsihi"* ("Ulardan ba'zilar nafsiga zulm kilgandir")¹.

¹ Шайх Нажмиддин Кубро. Шахри рисолайи одоб уз-зокирийн. Урганч 1997 21-бет.

¹ Курони карим. Фотир сураси, 32-оят. Ўзбекча изохли таржима. Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. - Т., "Чўлпон", 1992 400-бет.

Najmiddin Kubro tarikat ahlining zaif kishilar oldida toat-ibodatni bezab ko'rsatishi, o'z ishiga katta baho berib, riyo va munofiklik qilishi, xalk ko'rsatilgan ixlosni yoktirib, qo'lini o'ptirishi, o'zining tabarruk sanalishi va ziyorat kilishlarini xush ko'rishi, odamlar olqishini istashi, samo' majlislarida xozir bo'lib, xoriqulodda odat (favqulodda hodisalar ko'rsatishga intilishi), sun'iy suratda (xo'ja ko'rsin uchun) ro'za tutib, oz ovqatlanishni ko'rsatishi, yolg'ondan yig'lashi, lablar bilan tamshanib, ko'z bilan ishora qilishi, qalb huzurisiz Alloxxga yolvorishi, yamalgan liboslar kiyishi, tushlar ko'rib o'tmish va kelajak xaqida xukm yurgizishi, ojiz kishilarni ko'rish bilan toat-ibodatda mubolag'a qilishi, ammo xilvatda (yolg'iz qolganda) ibodatda dangasalik qilishi, majlislarda to'rga o'tib, samo' majlislarida xaddan oshishini tanqid qilgan.

Shayx Najmiddin Kubroning huzuriga Eron, O'rta Osiyo, Misr, Kavkaz, Shom, Iroqning turli xududlari muridlar kelib, tarbiya topganlar. Shayx ma'rifatidan bahramand bo'lib, uning suhbatida ishtirok etganlar.

Manokiblarda yozilishicha, mo'g'ullar istilosi arafasida shayxning to'rt yuzdan ortik muridlari bo'lib, ular orasida nomlari tarixda qolgan, o'zlari ham katta shayx darajasiga ko'tarilgan shayx Majdiddin Bag'dodiy (vaf. 1219 y.), shayx Sa'diddin Hamaviy (vaf. 1252 y.), shayx Sayfiddin Boxarziy (vaf. 1261 y.), shayx Ayn uz-zamon Jamoliddin Geyli (vaf. 1259y.), shayx Bobo Kamol Jandiy (vaf. 1219y.), shayx Najmiddin Roziy Doya (vaf. 1256 y.), shayx Roziddin Ali Lolo (vaf. 1244 y.), shayx Jamoliddin Ahmad Jurfoniy (vaf. 1269 y.) kabilar bo'lgan. Shayx Nuriddin Abdurahmon Isfaroiniy (vaf. 1317 y.), Abulmakorim Ruknid-din Alouddavla (vaf. 1336 y.), Axmad ibn Muxammad Biyoboniy (vaf. 1326Y.) ham bevosita bo'lmasa xam, nisba bo'yicha Najmiddin Kubroning murid-laridir. Ularning har biri tasavvuf tarixida o'z mavkeiga ega bo'lgan kubroviylik tariqatining davomchilari hisoblanadilar. Kubroviylik Sharq mamlakatlariga tarkalib, islomiy hikmat va insoniy poklik, iloxiy ma'rifat g'oyalarining tarqalishiga yordam berdi.

Shayx Najmiddin Kubro shaxid bo'lgach, uning ishlarini xalifalari davom ettirganlar. Bu jarayon XVIII asr oxirigacha davom etgan. Shundan keyin kubroviylikning ta'sir doirasi kamaygan.

Hozirgi kunda Ovro'pa mamlakat-lari va boshqa davlatlarda kubroviylik tarikatiga e'tiqod kilayotgan, ushbu ta'limotni o'rganayotgan, targ'ib kilayotgan ko'plab guruh va ilmiy tashki lotlar bor. Jumladan, Angliya, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Avstraliya, Rossiya, AQSH va Pokiston kabi mamlakatlarda Eronda faoliyat ko'rsatayotgan kubroviylik tariqatining bir tarmog'i hisoblangan ne'matullohiya tariqatini o'rganuvchi xonaqohlar mavjud.

Tariqat - komil axloq yo'li bo'lib, tariqat ahli xamisha Haq yodida bo'lib, kattayu kichikdan o'zini past tutib, xalq xizmatida kamarbasta bo'lishgan. Kishilarning xatti-xarakatida nuqson ko'rsalar, yumshoqlik va muloyimlik bilan ayblarini aytganlar. Hech bir narsalarini boshqalardan qizg'anmaganlar, aksincha, ularning qayg'u va hursandchiliklariga sherik bo'lganlar. Tariqatlar tasavvuf g'oyalarining keng tarqalishida katta axamiyat kasb etgan. Tariqatlar bir-biridan mazhabi, shariatga munosabati, xalqlarning ma'naviy-madaniy darajasi, urf-odatleri, pirlarining tarbiya usuli, vazifalariga ko'ra farqlangan va o'z davri ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-falsafiy va ma'naviy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Har bir tariqat vujudga kelishidan boshlab xalqqa kamolot yo'li haqida ta'lim bergan. Tariqat asosini inson ma'naviy kamoloti (nafs tarbiyasi, qalb tarbiyasi, ruhiyat tarbiyasi, botiniy tarbiya)ga oid bilimlar tashkil etgan.

Kubroviylik tariqatidan ajralib chiqqan kichik tariqat yoki shoxobchalar quyidagilardir:

1. Firdavsiya tariqati shayx Najmiddin Kubroning xalifasi "shayx ul-olam" nomi bilan mashhur bo'lgan shayx Sayfiddin Boxarziydan boshlanib, uning nufuzli shogirdlaridan biri Badriddin Firdavsiy (vaf. 1300 y.) nomi bilan bog'likdir. Ushbu tarikat Hindistonning Dehli va Bihar viloyatlarida keng tarqalgan.

2. Nuriya tarikati asoschisi Nuriddin Abdurahmon Isfaroiniy (vaf. 1317 y.) bo'lib, kubroviylikning Bag'doddagi shoxobchasidir.

3. Rukniya tarikati kubroviylikning Xurosondagi shoxobchasi bo'lib, tariqat asoschisi Rukniddin ibn Abul-makorim Axmad Alouddavla Simnoniy (vaf. 1336Y.) nomi bilan ataladi. Alouddavla Simnoniy Xuroson tasavvuf olamida buyuk mutasavvif va valiy zot deb ulug'langan.

4. Hamadoniya tariqati Hindistonning Kashmir viloyatida keng tarqalgan. Rukniya tariqatidan ajralib chiqqan ushbu shoxobcha Sayyid Ali Shaxobiddin Hamadoniy (vaf. 1385 y.) nomi bilan bog'liq bo'lib, hind diyorida islom dinining keng yoyilishida katta xizmat qilgan.

5. Ig'tishoshiya tariqati asoschisi Ishoq Xuttaloni (vaf. 1423 y.) bo'lib, Xurosonda tarqalgan.

6. Nurbaxshiya tariqati Ishoq Xuttaloni (vaf. 1423 y.) shogirdi Muhammad ibn Abdullox Nurbaxsh (vaf. 1464 y.) nomi bilan bog'likdir.

7. Ne'matullohiya tarikati asoschisi Sayyid Ne'matulloh Valiy (vaf. 1431 y.) bo'lib, Eronda keng tarqalgan. Sayyid Ne'matulloh tasavvufga doyr 544 ta risola yozgan, shundan 110 ga yaqini bizgacha etib kelgan.

Kubroviylik tariqatining shoxobchalari turlicha bo'lsa ham, asl maqsad va maslamlari birdir. Ularning yo'nalishlari shayx Najmiddin Kubro tomonidan asoslangan o'n qoidaga tayanadi. So'fiy olti marhalani (bosqich) bosib o'tishi lozim. Bular zikr (Allohni yodga olish va uning ismlarini aytish), fikr (tafakkur qilish), muhosaba (o'z-o'zini sarhisob qilish), murokaba (mushoxada qilish), vird (ibodat) bo'lib, shundan so'ng so'fiy Alloh bilan birlashadi, ya'ni ilohiy birlikka erishadi.

1.2 Najmiddin Kubro- tarixda o'chmas iz qoldirgan milliy qahramon sifatida.

Najmiddin Kubro ona yurt ximoyachisi, tarixda o'chmas iz qoldirgan milliy kaxramonlardan biridir. Shayx el-yurt, xalk ozodligi va yurt tinchligi uchun o'z jonini fido etgan buyuk siymodir. Uning kalbi vatanga muhabbat, el-yurtga sadoqat, beqiyos shijoat, fidoyilik va jasoratga to'lik bo'lib, yoshi ulug' bo'lishiga qaramay, dushmanga qarshi kurashda mislsiz mardlik namunasini namoyon etgan. Najmiddin Kubro kutlug' 76 yoshida 1221 yilda Chingizxon to'dalariga qarshi jangda shahid bo'lgan.

"To'rt ulus tarixi"da yozilishicha, Chingizxon Xorazmga lashkar jo'-natganda shayx Najmiddin Kubroga xabar yuboradi: *"Shoyad Xorazm ahvoli goratu qatl bilan bartaraf bo'lgusi. Maslahatim shulki, siz u erdan tashkari chiksangizlar. Darveshlaringizga ziyon-zahmat etkazilmagay"*¹.

Shayx Kubro: *"Etmish yildirki, Xorazi xalsi bilan yashab kelmoqdaman. Bugungi kunda qazoyi iloxiy balo jazosini yubordi. Ularning kallasida muruvvat degan narsa bo'lmaydiki, orasidan kochib, o'zimni bir chekkaga olsam. Balki ular bilan birga begam bo'lib, dushmanga duchor bo'lganim tuzukdir. Balolarga ham ular bilan yor bo'lsam"*, - deb nazm bilan javob bergan ekan:

¹ Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. -Т., "Чўлпон", 1994. 164-бет.

"Bir kekxa umri oxirlashib qolgandi. Shu sababdan unga soʻz kor qilmadi. Dedi: etmish yildirki, Xorazmda xushhol yashayman. Taqdir muru vvati shuni taqozo qiladiki, kelgan baloga tan bergum goxo. Qonimni shu erda toʻkadigan boʻlishsa, tangri farmonidan kochmagum. Kiyna olovi yongan ekan, Urganchda xoʻlu quruq baravar yondi. Shox lashkari oʻqu tigʻ bilan band, donoyu nodon xoli bilan ishi yoʻk. Uning boshini kesmasang yaxshi boʻlardi, degan pandni moʻgʻulning eshitgisi yoʻk. Qazo tigʻi takdir tu-fayli oʻtkirlashgan ekan, kekxa-yu, yoshning boshi kesilgusi”¹.

"Nafahot ul-uns"da keltirili-shicha, moʻgʻul bosqinchilari Xorazmga yaqinlashganda Muhammad Xorazmshoh oʻz yaqinlari bilan yurtni tashlab kochib ketadi. Lashkar boshkaruvsiz, parokanda holda boʻlganda, SHayx mu-ridlarining bir qismini Vatan ozod-ligi uchun dushmanga karshi kurashga chorlaydi, qolganlarini oʻz yurtlariga ketishni soʻraydi: *"Mashritsdan kelgan bu balo Matritsu Magribni yakson etadi, yondirib kul siladi. Sizlar har biringiz oʻz yurtingizga boring, oʻz joningizni asrash payida boʻling"*. Muridlar esa SHayxning oʻzlari bilan birga ketishini iltimos qiladilar: *"Ot-ulovlar tayyor, agar shayx biz bilan hamrox ketishni ixtiyor etsa-lar, yaxshi boʻlardi"*. Bunga javoban SHayx Najmiddin Kubro deydi; *"Men bu erda shahid boʻlaman, menga Xorazm-ni tark etishga ruxsat yoʻq"*.

Moʻgʻul askarlari Gurganj (hozirgi koʻxna Urganch - Z.YA.)ga yaqinlashganda, shayx muridlari bilan Vatan mudofaasi uchun chiqadi, xirqasining ustidan belbogʻ bogʻlab, qoʻyinlarini tosh bilan toʻldiradi, qoʻliga nayza olib, dushman bilan yakkama-yakka olishadi. Dushmanga karab tosh otadi, bir nechta moʻgʻulni nayza bilan urib yiqitadi. Ammo moʻgʻullarning qoʻli baland kelib, Vatan himoyachilariga tinimsiz kamon oʻqi yogʻdiradilar. Bir oʻk shayxning koʻkragiga tegadi. Qalblarni nurlantirgan etmish besh yashar shayxi kabir iloxiy ilxomdan maʼrifat topadi, holdan toyib, kuchi qolmayotganini sezsa xam, jangni toʻxtatmay, dushman bayrogʻini qoʻliga tutib, shu holatda jon beradi. SHayxning qoʻlidan kofir bayrogʻini chiqarishga

urinsalar xam, uddasidan chiqa olmaydilar. Keyin bayroqni qirqib oladilar. Bayroqning bir uchi shayxning muborak qo'lida koladi. Buni shayxning karomatidan deb bilib, "sari parcha" so'zi shayx vafotining sanasi ekani qayd etilgan.

"Shayx Xudo amri bilan Xorazm uchun boshini tikdi. Boshini topshirishda krtil yaloviga yopishdi. Dini hats ulimining shohi. Ul pir sarpanjasidan o'n zabardast yigit yalovni chitsara olmadilar. Otsillar buni shunday sharhladilar: yalov uchini shayx tutib, tarix aytdiki, vafotim sanasi "shohi shuhado" ("shahidlar shohi")dir"¹.

Rivoyat kilishlaricha, shayx vafotidan keyin bayrokni uning maxkam kisilgan panjalaridan o'n chog'li odam zo'rg'a ajratib olgan. Ulug' shayx va donishmand Najmiddin Kubroning bu kahramonligi, jasorati dushmanni xam xayratga solgan, ularning o'ziga ishonchini so'ndirib, g'ururini sindirgan. Bu ish avlodlarga ibrat bo'lib, xalq orasida afsonaga aylanib ketgan.

Bashariyat shoiri Jaloliddin Rumiylaridan birida shayxga yuksak extiromini bayon kilgan:

Biz so'lga sadah oluvchi ulugvor

kishilarmiz,

Oruq echkisi bilan qolgan sashshotslardan

emasmiz.

Bir so'lda iymonning xolis

sharobini icharlar,

Bir so'lda kofirning kokilin

mahkam tutarlar.

Shayx Najmiddin Kubroning xa-lifalaridan biri, Sayfuddin Boxarziy (vaf. 1261 y.) tariqat firqasini shayxning ko'lida kiygan, shayx Kubroning muborak ishorasi bilan Buxoroga kelib, ilm-ma'rifat yo'lida xizmat qilgan.

¹ Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. -Т., "Чўлпон", 1994. 165-бет.

Sayfuddin Boxarziyning Movarounnaxr va Xuroson diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy xayotida juda katta oʻrni borki, moʻgʻullar mana shu soʻfiyning pandu xikmatlaridan taʼsirlanib, islom diniga kirganlar. Musulmon olami-ning mashhur ilm-maʼrifat markazlari boʻlgan shaharlar vayron qonxoʻrligi, qoʻpolli, beshafqatligi, jangariligi bilan dunyoga dongʻi ketgan moʻgʻullar ommaviy ravishda oʻzlaridan magʻlub boʻlgan va xuddi ustarada sochni qirilgani kabi qilichdan oʻtkazilgan xalqning diniga - islomga kirishgan. Bu insoni-yat tarixida sodir boʻlmagan tarixiy haqiqat edi. Gʻolib bosqinchilar magʻlub mazlumlarning dinini kabul qilgan. Oltin Oʻrda xoni Oʻzbekxon (vaf. 1341 y.) islomni kabul kilgach, shayx Najmiddin Kubroning kabri ustiga ulugʻvor maqbara qurdirgan. Mashhur arab sayyoxi Ibn Battuta (vaf. 1377 y.) bu xaqda shunday yozgan: *"Xorazmdan chiqaverishda bir zoviya bor. Uni eng buyuk avliyolardan boʻlmish Najmiddin al-Kubro qabri uzra bunyod etishgan. B u erda ziyoratchilar uchun taom tayyorlanadi"*

Najmiddin Kubroning maqbarasi xozirgi Turkmanistonning Koʻhna Urgench shaxrida joylashgan. Maqbara yonida xonaqox boʻlib, u hozirga kadar uzoq-yakindan buyuk shayx ziyorati uchun kelgan kishilar bilan gavjumdir.

Bu zotning muborak nomi asrlar osha mardlikning yorqin timsoli va buyuk ibrat namunasi boʻlib qoladi. Bunga Shayx Kubroning *"Ona Vatan yoʻlida, Vatanni himoya kilayotib shahodat jomini noʻsh aylash - Alloh visoliga etishmok bilan barobardir"*, - degan purmaʼno soʻzlari yakkol dalildir.

Insonning qarashlari, ruxiy olami, botiniy kechinmalari uning badiiy ijodi, xususan, sheʼriyatida yana yorqinrok aks etadi. Shayx ruboiylarida nafsni mazammat etuvchi, iloxiy maʼrifat asrorining kashfidan xursandlikni ifodalovchi, darvesh kechinmalari, soʻfiyona dard-hayajonlari va umuman komil insonning qarashlari aks etgan.

Kubro ruboiylari shariat va tariqat amallarini benuqson ado etgan, xilvat va uzlat xayotidan bexabar, sabr va rizo, taslimiyat bilan barcha qiyinchilik va

to'siqlarni engib o'tgan, nafs zangidan ko'ngilni poklagan, oshiqlik, oriflik va valiylilik holatidan masrur ilhom egasining dil izxoridir. Uning ruboiylarini ilk bor E.Bertels turli tazkiralardan terib, Najmiddin Kubro haqidagi tadqiqotlariga ko'shib nashr ettirgan. Bu ruboiylarning soni yigirma beshta bo'lib, hanuz Kubro she'riyatini boyitadigan va uning she'riyat olamidagi mavkeini belgilaydigan boshqa she'riy namunalar topilmadi. Kubroning ishq va ma'rifat nuri bilan yo'g'rilgan ruboiylari shoirning ruhiy holati, ko'ngil kechinmalari ifodasi xisoblanadi. Kubroning she'rlarida rux xususiyati, borlik va yo'qlik tushunchalari, ilohiy olamni aql bilan bilish mumkin emasligi, aql fakat zoxiriy narsalar, hodisalarni bilishi mumkinligi, moxiyatni "devona", "oshiq" qalb bi-lishga qodirligi, so'fiy kamoloti badiiy yo'sinda talqin etilib, falsafiy mushohadalarga boyligi bilan ajralib turadi:

Ishqing mayini ichib, bu dil

mast bo'lgay,

Hajring gamini chekib, u, bil,

past bo'lgay.

Bir botseang agar - ko'yingda

tuproq bo'lgan

Jonsiz tanaga jon yana

payvast bo'lgay!¹.

Najmiddin Kubro haqiqatni izlash, Allohga bo'lgan ishqni kuylash, haq yo'liga da'vat qilish, Alloh muhabbatini qozonish maksadida tariqatga kirgan solikning hol va makomdagi turli boskichlaridagi o'y va kechinmalari, ranju iztiroblarini tasvirlash, so'fiy-darveshlarni ulug'lash, haqning mazhari bo'lgan ma'shuqa go'zalligini ta'riflash, goh visol umidi, goh hijron azobi

dagi oshiq holatlarini teran ifodalagan:

Sendan hama sho'xlik va parishonligimiz,

Sendan hama oshuftayu hayronligimiz.

¹ Донишмандлар тухфаси (Рубойлар). Таржимон, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Э.Очилов. -Т., "Ўзбекистан", 2009. 101-107-бетлар.

Kar torta kokilingni dil boylashimiz,

Sendan xama guncha kabi xandonligimiz.

Najmiddin Kubro Alloh va ruxni xakikiy borliq deb xisoblaydi, ya'ni bor deb tuyulgan narsalar aslida yo'kdir, chunki ular yaralgan va komil emas, ular o'zgarishda, emirilishda va yo'qotilishdadir. Yo'q bo'lib tuyulgan ruh emas, xuddi ko'pik ostidagi to'lqin yoxud shamol ko'rinmaganidek, ruh ko'rinmasa ham, mavjud, komil va sobitdir.

Xar narsaki, yo'qmi - yo'q, o'shal

misli shamol,

Xar narsaki, bormi - oqibat topdi

zavol.

Bor narsani olamda gumon et yo'q deb,

Yo'q narsani bor debon biroq,

ayla xayol...

Shayx Najmiddin Kubro iloxiy olamni aql bilan bilish mumkin emasligi, aql faqat zohiriy narsalarni bilishi mumkinligi, mohiyat kalb orqali bilinishi, talab yo'lida etuklik kerakligi, buning uchun esa dunyodan, nafs kutkusidan ozod bo'lish, poklanish, butun olamda Alloxni qalb ko'zi bilan ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi:

Xats yo'liga xar lahza sa'y etmak

lozim,

Dunyodan etak tortmagu ketmak lozim.

Diydangni davola, zero, olam xama -

Ul,

Ko'rmak Uni - asroriga etmak lozim.

Najmiddin Kubro darveshlarni kamsitish, ular xaqida nomunosib so'z aytish gunoh ekani, aslida o'zini bilgan odam boshkdnlarni ayblamasligi, chunki boshqalarning xam o'ziga xos botiniy olami, axloq-odobi, martabasi bor. Aslida darveshlar ma'naviy dunyosidan bahra olib, yuksak ma'rifat va

axlok egasi bo'lish sharaflı ishdır. Darvesh nafsning havoyi orzularidan qo'l siltab, moddiy borlıkdan kechgan, dunyo lazzatlariga berilmay, xaqikat

yo'liga kirgan haq oshig'i. Darvesh hurriyat makrmidagi eng yuksak hol egasidir:

Darvesh eliga aylama ta'naki, ular

Qanday tugilgan esa - shunday o'lar.

Bir olam zar bergilu, ol bir arpa –

Bilmoqchi ersang kimligini asli ular.

Shayx Kubroning she'rlarida ruh erkinligi, ishk sarxushligi orzusi, faqru qano kabi tasavvufiy holat va kechinmalar tasviriga katta e'tibor qaratilgan. Ishk martabalaridan bo'lgan muhabbatning ibtidosi yolg'iz haq bilan bo'lish uchun nafsni poklashdir.

Muhabbatning rostligi mahbubga itoat qilishda namoyon bo'ladi. Muhabbat insonning butun vujudini kamrab olsa, u faqat ma'shuqa - Allohni o'ylaydigan, boshqa narsa ko'ngliga sig'maydigan bo'ladi, g'ayrni unutadi va balki o'zligini ham unutadi, uning ishqidan do'zax olovi kuyib kul bo'ladi:

Oshi kishining ko'ngli to'la

dard bo'lish,

Dil dardi bilan mard yana ham

mard bo'lmy.

O'z ishsi o'tida u yonarkan, bul dam

Do'zax o'ti o'zgalar uchun sard bo'lmy¹.

Najmiddin Kubro nafsni "insonni dunyoga boglaydigan zanjir" dey, insonning vazifasi nafsni o'ldirib, o'zidagi hayvoniy kuchlarni mavx etish, irodasini chiniqtirib, iloxiylik sari intilishdan iboratligini uqtiradi. Nafsning yomonligini anglash o'zlikni, demakki, iloxiylikni anglashdir:

Pinhon emas aslo - ichda bir dev bordir,

Boshini ko'tarmogi uning dushvordir.

Iymonini ming martaba talqin qildim:

¹ Ўша асар 107-108-бетлар

Ul asli azal muslim emas, kuffordir.

Najmiddin Kubro talqinida ishq ilohiy his-tuyg'u, oshiq mahbubini ko'rgach, uni orzu kiladi va kalom bezovta bo'lib, zavk-shavqqa to'ladi.

Ishtiyoq shu darajaga ko'tariladiki, mahbub uchun o'zidan kechgan oshiq jo-nini berishga qam tayyor turadi, fano maqomiga erishadi. Do'stdan nishon va orifdan jon, ya'ni kimki ishq bilan o'lsa, shunday o'lgani ma'qul. O'lim bilan tugamagan ishkda xayr (yaxshilik) yo'qdir:

So'fiy bo'lib, ayla bir kecha ohu figon,

Dunyoni yaratgan xatssi, ko'zgol shu zamon:

Xanjarni so'lingga olu et o'zni shahid,

Yor vaslini istasa, netar jismni jon...

O'zlikdan kechgan va Alloh yodi bilan yashagan inson uchun ishk, oshiq va ma'shuq Alloxdir. Muxabbatning kamoli butun qalb bilan ishqqa asir bo'lish, maxbubni barcha narsadan afzal ko'rishdir.

Ul bodani ichmadimki, hushyor o'lsam,

Ul mast emasman dagi bedor o'lsam,

Tark etsam adam birla vujudni, tong yo'q,

Bir jilvayi xusning ila xummor o'lsam.

Allox vasliga erishishdan sarqush bo'lgan bedor qalb ilohiy jazavaga tushadi. Oshiq xar dam Alloxning rizqi, balo va qazolariga sabr-qanoat qiladi. Shavq va muxabbatning jo'shishi natijasida oshiq ilohiy ishqqa mastlikdan o'zidan bexabar bo'ladi, xamma narsani unutadi, sarhush va sarmast bo'lib, "men"likdan yiroklashadiki, faqat Uning talabida bo'ladi:

Yo Rab, O'zing asra, dil judolik istar,

Sendin kechib, o'zgala oshinolik istar.

Ishqingdan ilik tortsa — tutar do'st kimni?

Ko'yingdan oyoq tortsa - xatolik istar.

Najmiddin Kubro deydi, Alloxning bandasiga bo'lgan muxabbati u ni balolar bilan sinashi, bandaning Allohga bo'lgan muxabbati unga taslim va ta'zim kilishidaki, o'zlik nikobidan kechsang, ishq, oshiq, ma'shuq birdir:

***Ey, dil, bu sadar muflis ekansan, rasvo,
Sen loyitsi toza ishk, emassan aslo.
Shiddatli alangadir bu ishq, - ermas suv,
Ul ishq, ila bulhavas bo'lolmas oshno.***

Shayx Kubro iloxiy fayz yo'li bilan qalbdagi paydo bulgan ilxom sar-chashmalarini kanday bo'lsa, shundayligicha bayon etib, ishq dardida yongan, visoldan umidvor, xijrondan jigarlari pora bo'lgan, lekin haq nuri jamolini ko'rsatadigan ko'zgu, ya'ni ko'ngilga xitob qiladi:

***Ishqingni bu mardona-yu, farzona ko'ngil,
Bir soniya tark etmadi, jonona, ko'ngil.
Ishq bodasini qo'limda tutgan lahhza
Liq to'ldi jigar qoniga paymona, ko'ngil***

Najmiddin Kubro mutaassiblik va zoxiriy rasm-rusumlarga mukkasidan ketishni yoki yarmagan. Allox xamma uchun barobar, xamma unga tomon intiladi. Shu bois shayx Kubro mazxablararo ayirmachilik, irkiy yoki milliy ajratish, boshkdlarni pastga urishni qoralab, insonning ma'naviy olami yuksalgan sari u butun insoniyat taqdiri hakida qayg'uradigan, umrini faqat yaxshilik va ezgu ishlar bilan mazmunli o'tkazishga intiladigan kishilar sirasiga aylanishini ta'kidlaydi.

***Xar kimki, silar ko'rgali ul yuzni talab,
Yengib g'ururini, aylasin o'zni talab.
Ul qayda-yu, biz qayda — Ko'ring qismatni:
Somon bo'lib qilib yulduzni talab.***

Shayx xar dam iloxiy xaqiqatlar oshkor bo'lganda boshqa barcha dunyoviy ashyolarning arzimasligini e'tirof etadi. Shayx tavxid manbasiga tamoman g'arq bo'lgani uchun o'z zotini Xaqning yagona zotida, sifatini Uning sifatida, fe'lini Uning fe'lida ko'radi. Fakat bir (Allox - Z.I.)ni ko'radi, biladi va undan boshqa borliqni ko'rmaydi.

Najmiddin Kubro haqiqiy borlik deb Allohni biladi va aqlni Allohni bilishga o'zligini ta'kidlaydi. Aql faqat zohiriy narsa va qodisalarni bilishga kodir, moxiyat kalb bilan anglanadi. Devonayu, oshikdar uchun Ka'ba xam, butxona xam bir. Xar

lahzada minglab dili kuygan oshiq ishk savdosida Ka'badan butxonaga yo'l oladi. Kubro uchun butxona Allox vasli, ilohiyot xuzuridir:

***Yo'lingda aql xadis va afsona topar,
Ko'ying sari yo'l mardumi devona topar.
Savdoying ila men kabi ming dilso'xta
Ka'badin ilik tortaru, butxona topar.***

Ma'rifat ko'ngilga nur bo'lib quyuladiki, Najmiddin Kubro she'rlarini pokiza kalb ilxomidan tug'ilgan dil izhorlari, ilohiy ne'mat deb atash to'g'ri bo'ladi. Zero, qalb iloxiy darddan shavqqa to'lmasa, undan dil nolalari tug'ilmaydi va she'r xam vujudga kelmaydi:

***Sensan ikki olamni yaratgan Birubor,
Ko'yingda o'lib bandalaring xoku gubor.
Sendan ulashish rizqini xar jonzotning,
Sendan yaratish — xohi mo'gul, xohi totor...***

Tasavvufni she'r bilan bayon etish, ko'ngil izhorini nozik iboralarda bayon etish tasavvuf ahlidan juda katta mahoratni talab qilgan. Tasavvufning maxsus istilohu ramz-tamsillar yashiringan g'azal va ruboiylar avval "xos kishilar" uchun yozilgan bo'lsa, keyinchalik tasavvuf g'oyalari keng tarqalib, xalkchil usul qo'llanila boshladi. Sababi esa oddiy: inson ruxi hamisha komillikka tashna, buyuk ideal sari intiladi. Inson ruhining ozuqasini she'riyatdan topganki, garchi Kubro she'rlarida iloxiy g'oyalar tarannum etilsa xam, inson qalbi ifodasi bo'lgan, ya'ni Yaratuvchi xam insonning qalbidadir. Insonning butun hayoti, faoliyati, ijod va yaratuvchanlik qobiliyati, kashfu karomati va fayzu fazilatlari Allohga bo'lgan ishk tufaylidir.

***Yor ishsini nim ko'ksi aro jo qildi,
Har ikki jahon mulkini paydo qildi.
Kim vaslidan ogoxlik topsa bir dam,
Gar o'lsa-da, xun hatssini ado qildi...¹***

¹ Ўша асар 109-110--бетлар

Najmiddin Kubroning xayoti, ijodi, ijtimoiy faoliyati, tasavvufdagi oʻrni va karomatu bashoratlari rivoyatlar bilan korishib ketgan. Rivoyatlar olis moziydan sado beradiki, uning zamirida xaqiqat kurtaklari yashirin, buyuk shayxning afsonaga aylangan xayoti koʻz oʻngimizda namoyon boʻlaveradi.

II.BOB Najmiddin Qubroning boy maʼnaviy merosi-barkamol avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda ibrat namunasidir.

2.1 Ruhiy kamolotning oʻn qoidasi, “Ofoq va anfus” falsafasi

Shayx Najmiddin Kubro murid tarbiyalashning oʻziga xos usullarini ishlab chiqqan. Unda oʻn talab asosida tarikat manzillarini bosib oʻtish, poklanish va maʼrifatga erishish yoʻllari koʻrsatilgan. Shayx "Risola at-turuq" ("Tariqatlar risolasi") va "Al-usul al-ashara" ("Tasavvuf-ning oʻn asosi") asarlarida soʻfiylar tarbiyasida tavba, zuxd, tavakkul, kanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizoning axamiyatini eʼtirof etgan: *"Irodali kishilar oʻn asldan tashhariga chuqmaslar, chunki bu oʻn asl boshsacha vujud boʻlib, irodali shaxslar bunday kamolotli vujudga erishadilar. Mabodo biror kishi "Allohning mutsaddas sirlaridan votsif shayxlarning yoʻli nega metindek mustahkam boʻladi-yu, boshsa koʻprots va ozroq minglab matsomlarga ega boʻlgan kishilar bu oʻn aslga etib kela olmaydilar?", deb soʻrasa, buni javobi shuki, "mashoyixlar soʻllagan irodali oʻlish*

yo'li boshlardan fars silib, unda barcha matsomdagi holatlar o'sha o'n aslda o'z ifodasini topgan".

Quyida har bir usulning sharhiga to'xtalamiz.

Tavba. Yo'ning avvali tavba -"bobul-abvob", ya'ni eshiklarning eshigi bo'lgan. Tavbaning ma'nosi Allohning roziligiga xilof bo'lgan har qanday so'z va fe'ldan qaytishdir. Hadisda "Gunoxdan tavba qiluvchi gunoh qilmagan kishi kabidir"¹ deyilganki, tavba dil sofligi bilan Allohga kaytishdir. Tavba chin dildan pushaymonlik, tildagi uzr va yomonliklardan uzilish, insonning o'z-o'zini tarbiyalash vositasidir. Tavba ulkan axloqiy kuroldirki, tavba tufayli yaxshilikka yuz buriladi.

Tavbaning mohiyati kishining o'z nuqsonlarini ko'ra bilishi, holini anglashi, yomon ishlardan qaytishida namoyon bo'lgan. Qo'rquv tavgasi, ya'ni gunohlarga iqror bo'lish - oddiy kishilarga xos bo'lsa, so'fiylar tavgasi "qalb istijobi" (poklanish) hisoblangan. Usmon Mag'ribiy (vaf. 983 y.) itining vafodorligini ko'rib ta'sirlangan bo'lsa, balxlik Ibroxim Adham (vaf. 783 y.) xotifdan kelgan nidodan ogoxlikka yuzlangan. Bishri Xofiy (vaf. 841 y.) erda yotgan qog'oz parchasidagi "*Bismillahir rohmanir rohiym*" yozuvini qo'liga olib, uni o'pib, saqlagan va tushida Xaq kalomini eshitgach, tavgai nasux (kayta gunox kilmaslikka azm va jzm qilish, nimaiki Alloxning roziligiga xilof bo'lsa, darxol undan qaytish, g'aflat, befarmonlik bilan o'tgan va bexuda zoe bo'lgan vaktlarga doimo pushaymon bo'lish) qilib, Allohga yuzlangan. Shayx Attor darveshning "Vallox" deb, jonini haqqa taslim kilganidan butun xoli o'zgarib, Allox yo'liga kirgan ekan.

Tavba barcha amallarning boshi bo'lib, uning birinchi qoidasi asl tavgadir. Agar o'lim Allox taologa irodasiz ravishda ruju qilish bo'lsa, tavba xaq taologa iroda bilan yuzlanishdir. Tavba Xudo tomon yuz tutgan barcha kishilarning har qanday gunohlaridan forig' bo'lishidir. Gunox shunday narsaki, u dunyoviy yoki iloxiy bosqichlaridan tashkil topganiga qaramay, Allohdan yiroqlashtiradigan amaldir. Xudoga yaqinlashishni istovchi xar bir

kishi uning o'zidan har kanday yoqimli va matlub narsalardan voz kechishi va hatto o'z vujudini xam tark etishi lozim bo'ladi.

Tavba yo'liga kirgan inson najot faqat Alloxdan ekanini anglab, butun faoliyati, axloqini shunga moslaydi. Demak, tavnada qalbning uyg'onishi, ogohlik, g'aflatni tark etish va ezgulikka yuzlanish, xullas, insonning yomon ishlar, sifatlardan voz kechib, yaxshi ishlar va fe'l-atvorga qaytishi qodisasi yuz beradi.

Zuhd. Tarkidunyochilik, taqvo, parxezkorlik, dunyoga iltifot qilmasdan, toat-ibodat bilan kun kechirish, Allohga ma'qul narsalarni sevish, Alloh ta'qiqalaridan voz kechish zuxd bo'lib, uning mohiyati dunyo va oxiratga rag'bat qo'yishdan voz kechishdir. Rasululloh (s.a.v.) deydilar: *"oxirat ahllari uchun dunyo haromdir, dunyo ahllari uchun esa oxirat haromdir. Ularning undan nasibalari yo'hdir. Alloh ahllari uchun dunyo va oxirat xarom bo'lib, ular zikr etilganlardan lazzat ham, bahra ham olmaydilar"*.

Parhezkorlar iymon nuri bilan oxirat jamolini mushohada kiluvchi, dunyoni qabix deb biluvchi, uning barcha lazzatlari va ziynatlaridan voz kechuvchi kishilardir. Ularning shiori shunday: "Bu dunyoda zuxdu taqvo egasi bo'l va hech kishidan biron narsa tama' qilmaki, barcha xalq senga muhtoj bo'lsin. SHundagina sen dunyo va oxirat podshosi bo'lasan".

Agar inson gunohlar qa'ridan yuqoriga ko'tarilib, zalolatlardan qutulib chikish yo'lini topa olsa, zanglagan havo tabiiy oyna yuzidan archib tashlanadi. Ana shundagina, dunyo xaqikdtining emas, balki dunyo va oxiratning butun borlig'i unga ochiladi. Demak, bir narsaga rag'bat va xirs qo'yishdan voz kechib, Haq tomonga yuzlanish darkor.

Zuhd rag'batdan voz kechish bo'lib, ikki qismdan iboratdir. Birinchisi, ichki lazzat, sharob ichish, nikohiy ishlarga ruju qo'yish, mansab va oliy martabalarni qo'msash kabi, ilohiy roxatlarga o'xshash his-tuyg'ulardan voz kechishdir. Yillar davomida xayrli ishlar bilan band bo'lib, er ishlari bilan shug'ullanish va shunga o'xshash boshqa faoliyat ta'sirida dunyoviy narsalardan ko'ra, oxiratga ko'proq tamoyil va rag'bat ko'rsatish maqsadga muvofikdir. Chunki dunyo foniy bo'lib, oxirat esa boqiydir. Ikkinchisi, Alloh oldida dunyo va oxiratning nuqsonli ekanligi

mulohazasidan kelib chiqib, ularning har ikkisiga ham ragʻbat qoʻyishdan voz kechishdir. Zuxd xaqiqatta muvofiq shundayki, uning birinchi qismi oʻz zotiga koʻra, saqlanib qolgan hissiy ragʻbatga asoslangandir.

Ragʻbatdan voz kechish, vujud-ni butunlay bartaraf qilish zuxd xakikatidan iborat emas. Zero, bir jinsdan kelib chiqadigan ragʻbat oʻrniga undan afzalroq boshqasi paydo boʻladi. Ushbu takomillashgan ragʻbat haq ragʻbati bilan qoʻshilmaydi. Xudoga intiluvchilar nochor boʻladilarki, ularning ragʻbati dunyo ishlaridan uzilgach, oxiratdan ham ajralib koladi va Alloxning Oʻzidan boshqa xech nima ularga orom baxsh eta olmaydi.

Tavakkul. Har bir ishda Alloxga suyanish, oʻz ojizligini Allohga bildirish tavakkuldandir. Tavakkul qilgan inson oʻz amallari, fikri va ishlarida yolgʻiz Allohga suyanadi. Rizq Allohdan ekani, inson takdirini Alloh belgilashi va kishilarning amallari ham Allox irodasi doirasida boʻlishi kerakligini anglaydi. Chunki yaxshilik va yomonlik, toʻklik va ochlik, boylik va kambagʻallik ham Allox dandir.

Alloh insonni toat-ibodatga chorlaydi, insonga bandaligini eslatib turadi. Ammo inson buyuk zaruriyat ichradir. Uning faoliyati, ijodi va kudrati shu ilohiy zaruriyatdan tashqariga chiqib ketolmaydi. Inson buni anglashi lozimki, barcha mavjudot kabi u ham foniydir, abadiy emas. Abadiy faqat Allohning oʻzi, agar inson abadiyatni xoxlasa, Allox sari intilishi, poklik olamiga qarab, kamolot kasb etishi lozim.

Tavakkul har bir ishda Allohning qudrati va ulugʻvorligini koʻrishdir. SHunday paytdagina nafs xohlagan va unga taalluqli narsalar boʻlmasa ham iztirob chekilmaydi. Maksudga erishish mahalida tavakkul birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Chunki, Alloxga ishonch hosil boʻlib, barcha zaxiralarni unga topshirilgan boʻlsa xam, nafsni biror ish bilan mashgʻul etib turish maqsadida oz-moz rizq soʻrash talab etiladi. Zeroki, agar nafsni mashgʻul kilinmasa, u dilni nomatlub narsaga band qilib koʻyishi mumkin. Negaki, narsaning odati shundaki, agar uni biror narsa bilan mashgʻul etilmasa, u

shaxsni mashg'ul etib ko'yadi. Bunday rizq talabida boshqalarning manfaatini ham mulohaza qilish kerak.

Azaldan fe'l, ya'ni ishning yaxshi yoki yomonini tanlash ixtiyori insonning o'ziga berilgan. O'sha ixtiyori fe'lida tavakkul qilgan inson, aytaylik, ilm o'rganishga tavakkul qilsa va ma'lum kasb-hunarni egallashga astoydil kirishsa, unga Allohning o'zi madadkor bo'ladi. Bilmagan narsalarini biladi. Tavakkul insondan, maqsadga etkazmoq esa Allohdandir. Tavakkul va harakat birlashsa ko'zlangan maqsad hosil bo'ladi. Asli-da kasb insonni rizqlantirmaydi, u fakat xarakat qilgani va intilgani uchun rizklanayotgani yo'k, rizq Alloh taolo tarafidan kelishini unutmaslik lozim.

Tavakkulning darajalari bo'lib, birinchisi, shikoyatni tark etish, ikkinchisi, rozilik va uchinchi -muxabbatdir. Shikoyatni tark etish sabr darajasi bo'lsa, rozilik Alloh taksim qilgan rizq bilan kalbning sokin bo'lishidir. Muxabbat - Alloh o'ziga nisbatan qilgan tadbiri tufayli Uni yaxshi ko'rishdir. Tavakkulning fazi latlari: iymonni kamolga etkazadi, shaytondan muxofaza qiladi, yomon odamlardan asraydi, haromdan saqlaydi, tama' qilishdan tiyadi, xotirjamlik va barkarorlik baxsh etadi. Alloxga itoat va rizolikni kuchaytiradi, qiyinchiliklardan xalos etadi, yomonliklarga kaforat bo'ladi, rizqni keng qiladi.

Qanoat. Nafsning istagiga kar-shi borish, barcha istaklardan voz kechib, eyish, ichishda qanoat qilish. Qanoat insonning ko'ngliga ravshanlik va yorug'lik keltiruvchi ne'matdir. Qanoat nafs, qayvoniy shahvat va lazzatlardan voz kechish, lekin u darajada emaski, odamning mavjudligi usiz bo'lmaydi. Demak, eyish-ichishda, kiyinishda va biror joyda muqim turishda zaruriy xaddan oshib ketmaslik kerak. Odatda oziga va boriga ko'ngan, bori bilan kifoyalangan, nafsini tiygan, chidamli, sabrli, o'sha holatda ham mamnuniyat va qoniqish bilan rozi bo'lgan kishilar kanoatli deyiladi.

Kanoat tufayli xokisor inson yuksaklikka erishadi. Do'st-dushmanga muhtojlikdan xalos bo'ladi. Shoh-gadolik tashvishi, qaramlik, nafsining g'alvasidan kutuladi. Qanoat tuganmas xazinadirki, undagi boylik sochilgani bilan kamaymaydi, bir obi chashmadirki, olgan bilan kaynab chiqaveradi.

Inson extiyoji darajasi bilan qanoatlanib, tejamli hayot kechirishi, faqirlikni faxr bilib, bu dunyoga foniy ko‘zi bilan, oxiratga boqiy dunyo ko‘zi bilan qarashi lozimki, Qur’onda

"Allox ulardan (chin mo‘minlardan) rozi bo‘ldi, ular xam Alloxdan rozi bo‘ldilar. Bu esa buyuk saodatdir"¹ deyilgan. Buning xaqiqati Allox ilm va faxm bergan zot - inson Allox xukmiga rozi bo‘lib, xar qanday musibatu baloga sabr-qanoat qilishi va Muxammad (s.a.v.) yo‘lini tutishida mujassamdir.

Qanoat yo‘lini tutgan inson xar qanday baland martaba va mavqega ko‘tarilganda xam kamtarlik va xokisorlikka sodik qolib, parxezkorlikdan chekinmaydi va insofni kuch, kuchni insof deb biladi, joni bor maxluqotlarning hech biriga ozor bermaslikka, kahrga mehr-muhabbat bilan, johillikka ma’rifat bilan, nafsga sabr va qanoat bilan munosabatda bo‘ladi.

O‘z mexnati bilan qanoatda kun kechirish har kanday qullikdagi shohona xayotdan afzal bo‘lib, kanoat himmatning poydevori xisoblanadi.

Qanoatsizlik, nafs quliga aylanish jamiyatda axloqiy nuqsonlarning ko‘payishiga zamin yaratib, iqtisodiy kiyinchilik va siyosiy nizolar tufayli xalq parokanda bo‘lishiga olib keladi. Inson farishta bilan hayvon orasida turuvchi maxluq ekan, unda rux va jism kurashi muqarrar bo‘lib, kamolot ana shu jism talablarini eng borish va rux talablarini ko‘paytirish bilan qo‘lga kiritiladi.

Uzlat. Insonning ruhi, agar u poklanishiga moyil bo‘lsa, tabiiy ravishda yakkalanish va go‘shanishinlikni talab qiladigan holat bo‘lib, inson ruhi "tajrid" (ajralish) va "tafrid" (yolg‘izlanish) bosqichlarini bosib o‘tmas ekan, bus-butun poklanolmaydi. Uzlat turli yomon ish hamda yomon odamlardan uzoqlashish, bexuda mashg‘ulotlar o‘rniga toat-ibodat bilan mashg‘ul bo‘lish, o‘zi xalq bilan bo‘lsada, qalbi Allohning zikri bilan band bo‘lishi, jamoat ichida bo‘lsa ham fik-ru zikrni Allohdan uzmaslikdir.

¹ Курони карим. Моида сураси, 119-оят. Ўзбекча изохли таржима. Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. - Т., "Чўлпон", 1992 127-бет.

"Tafrid" insonning dunyoga tegishli narsalarni butunlay ko'ngildan chikarib tashlashidir. Inson umri o'tkinchi bo'lgani uchun ham aziz umrni keraksiz narsalarga sarflash, dunyoga qirs qo'yish oqillar ishi emas. "Tajrid" insonga ruhiy hotirjamlik bag'ishlaydi.

"Tajrid" dunyodan uzilish bo'lsa, "tafrid" Xudo bilan birga bo'lish, o'zini Xudoga bag'ishlash, o'zini shikasta va ojiz tutish, Xudoning kudratini baland va aziz tutishdir. "Tafrid" insonning o'z Yaratuvchisiga bo'lgan muhabbati daraxtining mevasi bo'lib, kishi "tafrid" holida bo'lmaguncha, ma'rifatga erisha olmaydi.

Uzlat chilla o'tirish, xilvatni-shinlik bilan amalga oshgan. Uzlatdan ko'zlangan maqsadlarning birinchisi Xudoni o'z xulqiga garov deb bilish bo'lsa, ikkinchisi o'z fe'l-atvoridan sharr, ya'ni yomonlikni bartaraf etishdir. Uchinchisi iysor, o'zini bag'ishlash va o'z xulqi xaqida mavlo (homiy) bilan suhbat qurishdir. Uzlatga chekinish, demak, insonning o'z-o'ziga chekinishidir. Avval botinni anglash, tarbiyalash darkorki, bu nafsni poklashdan boshlanadi

Uzlatning asl maqsadi xilvatda ado qilganligi sababli his-tuyg'uni jilovlashdir. Xis-tuyg'uda yoyiladigan narsa shu jihatdan salbiydirki, rux muhtalo bo'ladigan xar fitna, ofat va balolar nafsini kuchaytiradi va ularning sifatlarida tarbiya topgan nafs xisseyotlari ichidan chiqib, ruhni o'ziga tobe qiladi. Xilvat va uzlatda ekanlik his-tuyg'udan xalos bo'lishga madad berib, uni dunyo va shayton ish-laridan, shahvat va omonat nafs olishdan qutqazadi.

Xilvat va uzlatga ketish shun-day hissiyotlarni bosilishiga olib keladiki, go'yo kasalni davolamokchi bo'lgan tabib, dardga sabab bo'lgan zararli marazni aniqlash uchun birinchi galda bemorning ichki a'zolarini tozalash chorasini ko'radi. Chunki ichni tozalash bilan fosid moddaning zo'rayishi to'xtatiladi. Tabiblarning kayd etishicha, ichki a'zolari tozalash xar kanday davolashning boshidir. Undan so'ng shifo baxshida etish osonlik bilan ko'chadi va yomon modda bartaraf etiladi. Tabiiy quvvat va g'ayrat bu zararli modda ostida band bo'lganligidan qutulib, jonlanadi va o'z tabiiy vazifasini bajarishga kirishadiki, natijada kasallik chekinib, tana sog'lomlashish tomon boradi. Demak, ichki a'zolari yuvish badanni zararli

moddalar qabziyatidan xalos etgandek, dilni yuvish xam uni majruxlikdan dadillashtiradi.

Ko'ngil Allohning uyi, manzilgohidir. Xuddi yaxshilar majlisiga qatnashmagan kishi yaxshilarning yaxshiligini bilmagani kabi, ko'ngil sharbatini totib ko'rmagan kishi uning lazzatini bilmaydi. Qalbni majrux qiladigan narsa dunyo matohlariga aldanib, Xudoni unutish, uning amrlarini bajarmaslik va g'aflatda kolishdir. Bunday kishilar ko'rinishidan tirik bo'lsalar xam, aslida o'likdirlar. Ular poklanish bilangina qalb kasalligidan forig' bo'ladilar.

Tavajjuh. Zehnni diqqat bilan bir narsaga karatish, insonning o'zi bilan o'zining kurashi, hamma vaqt Yaratganga yuzlanib, Undan madad so'rab, Unga sari qalban intilishi, Allohga o'zining butun borliq vujudi bilan yuzlanishi, ya'ni xuddi o'lgan shaxe bu dunyo ishlaridan chiqib ketgandek, insonning o'zining butun zoti va mohiyati bilan uni Xudodan boshda hamma narsadan alokasini uzib, faqat Allox taologa o'z e'tiborini qaratishi, ya'ni unda Allohdan o'zga qech qanday matlub va maxbub, murod yoki biror maqsad qolmasligidir.

Agar unga barcha elchi etilgan yoki elchilik darajasida bo'lmagan payg'ambarlarning martabalarini berilsa ham unga iltifot etmasligi kerak. Chunki ko'z ochib yumguncha qam, unga mahliyo bo'lsa, Alloxdan forig' bo'lishga olib keladi. Ma'rifat har qanday dunyoviy, nafsoniy moyilliklardan pokiza bo'lgan, butun fikri-zikri bilan Alloxga tavajjuh qilgan insonga nasib etadi. Zero, Allohga bir soat tavajjuh qilish kuyosh nuri tushadigan barcha narsalardan yaxshiroq ekan. Tavajjuh tufayli Allohning roziligi va muhabbatiga erishiladi, qalb sokinlashadi.

Sabr. Insonning chidami, bardoshi, toqati, qanoatdagi ustuvorligi, insonning boshiga tushgan har bir qiyinchilikka chidashi. Sabrning yana bir ma'nosi tanglik bilan o'zini tutib turishdirki, sabr - ilm, hol va amal bilan kamolga etgan. Imon-ning yuksak darajasi ham Allohning hukmiga sabr qilish va takdirga rozi bo'lishdir.

Baxtli onlarda hovliqmaslik, kulfat va mashaqqatga yo‘liqqanda baxtiyor kunlar yana kelishini yodda tutish va sabr-tokat, qanoatni ko‘ldan bermaslik katta fazilat sanaladi. Rizoning boshi ham sabr bo‘lib, haq yo‘li og‘ir va mushkul yo‘l, uning azobu iztirobiga chidagan inson maqsadiga erishadi. *"Alloh albattpa sabrlilar bilan birgadir"*¹, *"Alloh musibatlariga chidab, sabr qilguvchilarni sevadi"*² kabi Qur'on oyatlari xamda "Musibat etganda sabr kiluvchi, kechiruvchi va tavba kiluvchi kishilarga xotirjamlik va xidoyat ato etilur"³ xadisidan ibrat olgan insonning sabri hamisha Allohdan rozi bo‘lishi, xalqning ozoriyu, g‘ofil va johillarning yomonligiga bardosh bilan chidashi, ulardan shikoyat kilmasligi, xamisha rostlik va sodiklikda ekanida namoyon bo‘ladi.

Sabrli kishilar avvalo o‘zlarini isloh qilishga, gunox ishlardan tiyilishga, "birovning aybini qidirguncha, o‘zining ayb-nuqsonlarini tuzatishga" intiladi. Nafsni qayg‘u va achchiqlanishdan, tilni shikoyatdan va a‘zolari tashvishdan tutib turish, qilinishi yaxshi va go‘zal bo‘lmagan narsalardan saqlanish, Kur'on va sunnat ahkomlarida sobit turish, balo etganda go‘zal odob, iztirob paytida kalbning sobit turishi sabrning kamolidandir. Sabrda so‘z va amal sobit bo‘lsa, hattoki falakning zulmiga uchragan kishi xam murodiga etishi muqarrar ekan. Halol luqmadan paydo bo‘lgan ma‘rifat va iloxiy fayz tufayli inson Allohga yaqinlashib, iloxiy sirlar sohibiga aylanadi. Bir lukma harom esa erishilgan barcha fayz va shukuhni emirib, yo‘q qilib yuborishi mumkin ekan. Sabr tufayli inson moddiy va ma‘naviy yaxshiliklarga erishish yo‘lida yo‘liqadigan jismoniy va ruhiy mashaqqat va alamlarga chidashga o‘rganadi.

Muroqaba. Insonning biror narsaga diqqat bilan nigoh tashlashi, ko‘zni yumib, Allox yodi bilan band bo‘lishi, dunyoga taalluqli xayol, o‘tkinchi mayllardan forig‘ bo‘lishi, insonning Allox tomonidan xamisha kuzatilib turishiga bo‘lgan ishonchi va xar bir ahkomga Allohni ko‘rib turgandek amal qilishidir. Muroqaba tufayli tavba-tazarru qilib, zikru toat, sabru sadoqat bilan ma‘rifatini oshirib borgan inson bora-bora osoyishta bir xolga keladi, Al lox diydori yodida

¹ Ўша асар. Бақара сураси, 153-оят. 23-бет.

² Ўша асар. Оли Имрон сураси, 146-бет

³ Ахлоқ - одобга оид хадис намуналари. Т., 1990 140-бет.

tafakkurga gʻarq boʻladi, olamlarni ruhan sayr qilib chiqadi, koʻz oldiga Allox jamoli va Paygʻambar siymosini keltira oladi. Ruhi toʻlishib tasavvur va taxayyuli kengayadi, gʻayb asrori eshiklari ochiladi. Tafakkurga gʻark boʻlish shaxsning oʻz voqeligidan, oʻz kuch-kuvvati va qodirligidan chiqib, barcha umid koʻzlarini Haqqa tikib, undan kechirim soʻrash holatidir. Uning lutfidan baxramand boʻlish umidida, unga yaqinlashish ilinjida oʻzligidan kechib, oʻz oʻrnini unga boʻshatib, bu dunyodan u tomon yuz oʻgirib, oʻzining butun sifat va xususiyatlaridan voz kechib, butun borligʻini Unga topshirishdir. Uning fikri va mayli daryosiga shoʻngʻib, uning diydoriga mushtoq boʻlmoqlikdir. Uning dilida fakat Uning orzusi yonib, joni Uning vafida nola qilsa xam, sabr bilan Undan oʻtinib soʻraydiki, Allox taolo uning faryodiga etib, hech kim monelik qila olmaydigan oʻz raxmatini undan darigʻ tutmagay va uni barcha azoblardan forigʻ qilgʻay.

Ilohiy sirlarni anglashda bardavom boʻlishi uchun inson ichki dunyosini ilohiy hakikatga taalluqli boʻlmagan narsalardan tozalab bevosita muroqaba (tuzatish) yoʻli bilan xaqiqatni bilishga intilgan. Inson kamtarlikni mushoxada qilib, uning oqibati, savobi, mukofotini va uning ziddi manmanlikning oqibati, unga beriladigan gunoxu azobni mushoxada kilib, kamtarlik bilan xulklanadi. Manmanlikni tark qiladi. Yoki inson saxiylikni mushoxada qilib, uning oqibati, savob, mukofotini va uning ziddi baxillikning oqibati, unga beriladigan gunoh va azobni mushoxada qiladi. Saxiylik bilan sifatlanadi va baxillikni tark etadi.

Agar biror kishida murokaba tufayli yoʻl ochilmasa, uning sababi shundaki, u Allohning rahmati bilan yaxshi tanish boʻlmasligi okibatida, uning nuri hali nafs zulmatini yoritmaganidir. Nafsini shahvatdan, koʻzini haromga bokishdan saqlagan, botinini doimiy muroqaba bilan taʻmir kilgan, zohirini sunnat bilan bezagan kishining farosati xato kilmaydi.

Agar Alloxning raxmati tushsa, nafsning zulmatidagi xozirligi koʻz ochib yumguncha yoʻqoladiki, koʻp yillik kurash va riyoziyat chekish xam

uni bun-chalik tez bartaraf kila olmas edi, ya'ni *"Xudo yaxshilikni yomonlikka va yomonlikni yaxshilikka aylantirishga sodirdir"*.

Murokaba insonni Alloh muxabbatiga etkazadi. Allox uni ko'rib va eshitib turganini xis kilish inson kalbi tirik ekanining alomatidirki, agar qalb xasta bo'lsa, zikr, muroqaba ko'p bo'lmasa, bu maqomga erishib bo'lmaydi. Toat va ibodatda muroqaba ixlos bilan, ma'siyatda tavba, nadomat va gunoxdan ajralib chiqish bilan, mubox narsalarda odobga rioya qilish bilan, ne'matlardagi murokaba shukr bilan, musibatlardagi murokaba sabr bilan yuzaga chiqadi.

Zikr. Eslash, yod etish, dil, fikr, tuyg'uni Allohga yo'naltirib, Allox bilan ilohiy rishta bog'lash, Uning ismlarini zikr kilish orqali Alloxning cheksiz qudrat, go'zalligini idrok etish. Zikr iymon va ilmdan iborat bo'lib, qalb amallarini tartibga soladi. Har bir narsaning shifosi bo'lganidek, kalblarning shifo-si zikrulloxdir. Inson xar erda, har doim Alloxning ismlarini tilidan qo'ymasligi, kalima, duoni muntazam takrorlab turishi bilan qalbiga Alloh taolo sifatleri va Zoti joylanadi. Uning kalbida Allox nuri porlay boshlaydi.

Najmiddin Kubro *"zikri xufiya"*, ya'ni kalb zikrini afzal bilgan. Uning fikricha, zikr jarayoni insonning nafas olish jarayoni bilan bog'liqdir. Hayvonning nafas olishi tabiiy zarurat tufayli yuz beradi, inson xam ayni o'sha zaruriyat yuzasidan nafas olgan xolda, nafas olish jarayonida g'oyibona Haq subhonaquning nomini zikr etadi¹.

Allohning savob va mukofotlariga erishish uchun ibodatlar, farz amallarini bajarishi, xaromdan tiyilishi, qo'lidan kelgan barcha yaxshilikni qilishi, dunyoviy ishlarni bajarib turgan xolatda butun vujudi bilan Allohning ismini zikr qilishga mashg'ul bo'lishi lozim bo'lgan. Qallda "La ilaha illalloh" kalimasi mus-tahkam o'rnashgach, iymon nuri xam kuchayib, ilohiy asror paydo bo'ladi. Agar inson Allox zikrida bardavom bo'lmasa, uning qalbi qotib qoladi va ilohiy ne'matlardan mosuvo bo'ladi.

¹ Исҳоқова Замира. Шайх Нажмиддин Кубро. Тошкент., "O'zbekiston". 2013. 59-60-бет

Qachonki inson Allox zikrini har daqiqa, qatto uxlaganida ham aytib turadigan bo'lsa, uning qalbi Alloh zikri bilan tirilgan hisoblanadi. Bunday qalb yumshaydi, mayinlashadi, nafsning harorati o'chadi, qalbning qattiqligi, qo'polligi va keskinligi ketadi. Bunday kishilar "zokir" deb ataladiki, ular hidoyatga erishgan va qalblari Alloxning zikri bilan orom topganlardir.

Rizo. Ma'naviy kamolotning oliy makrmi rizo bo'lib, kachonki inson nimaiki Haqdan kelsa, va har kim sabab bo'lsa, Yaratuvchidan o'zga kishini orada ko'rmay, Allohning qudratiyu, cheksiz ilmini chuqur xis qilgan xolda, o'zini butkul Uning irodasiga topshirsa va Alloh olami bilan xuzurlansa, bu xolatda Xaq unga va u haqqa yaqinlashadi. Rizo - qayg'u va kadarning achchig'ligini qalb sevinchi bilan karshi olishdirki, u g'aybdan etadigan narsalarga muvofaqat kilishdan ustun turadi.

Rizo shaxsning nafs xushnudligidan chiqib, Xudo xushnudligiga kirishi va azaldan nimaga ishongan bo'lsa, o'shani o'z bo'yniga olishdir. O'z irodasini to abad qoladigan narsaga voqelik sifatida kaytarib, o'limga o'xshash o'tkinchi narsaga e'tiroz bildirishidir: *"Barcha ishlarimni mahbubimga saytardim, agar xohlasa shirin soldiradi, xohlasa nobud qiladi"*¹. Agarda tafakkurga g'arq bo'lish yaxshi amalga ohsa, soliqni rom kilib olib, uning aloqasini boshka narsalardan uzib tashlaydi. U ishonch hosil etadiki, xamma narsa ilman va aynan o'ziga bog'likdir.

Rozilik maqomi muhabbatga asoslangan bo'lib, Xaqqa etishganlar maqomidir va oxirgi boskichda solik-lar maqomi sifatida xam vujudga keladi. Rizo, kazo va qadr hukmlari ustidan xushnudlik bildirish bo'lib, azalda yaratilgan narsaning jilosi ayyo muayyanligi bo'lsa, qadr narsalar yaratilishining o'zidir. Azaldan tayin etilgan irodaga muvofiq bu maqom to'g'riligining alomati shunda-ki, faqirlik, boylik, ranj chekish, rohat, o'lim va xayot boshqa shunga o'xshash narsalarning barchasini xilma-xil xolatlari Uning oldida tengdir va ularning birini ikkinchisidan afzallik tomonlari yo'kdir. Hazrati

¹ Ўша манба 61-62-бетлар

Ali deydi: "Hursandchilik asosiga kurilgan makruxlikka hech qanday makruxlik etib kelmaydi", ya'ni unga nima kelsa, kelishi kerak edi. SHunga binoan, unda nima sodir bo'lishi kerak bo'lgan bo'lsa, shu narsa keladi va bu maqomning egasini bexishtga tushi-shi nakd bo'ladi. Zero, xursandchilik behisht ahlining lozim bo'lgan narsalaridandir. SHuning uchun xam behisht darvozabonining nomi xam "rizvon" deb ataladi.

Rizo ichki tabiiy xolat, uning maqomi kat'iy sifat bo'lib, to'g'ri ishonch vositasida dilda bo'ladi va Alloxga nisbatan kuchli muhabbatda ifodalanadi. Buning ma'nosi nafsdan hazar kilishga qarama-qarshi emas. Shunday ekan, u qalbning kasali bo'la oladi va nafs makruhligi shu bilan izohlanadi. Rizo holati turg'un bo'lmay, aqlga kiritilgan narsaning unga dahli yo'kdir. U nafs karomaqti bilan ko'shilmaydi, chunki uning latif tuxfasi bo'lib, ilohiy xulkka munosibdir. Uning ta'siri barcha shaxslarga etadi. Demak, rizo holati ham shunday bo'lsa, uning kudrati ko'p narsalarga kodir bo'ladi va u nafsdan xazar kilib, u bilan ko'shila olmaydi.

"Nafahot ul-uns"da keltirili-shicha, shayx Kubroning muridlaridan biri Majdiddin Bag'dodiy jismonan nozik va latif tabiatli yigit edi. Najmiddin Kubro dastavval uni suv tashish, xonakrhni supurib-sidirish, nopok joylarni tozalash va xokazo ishlarni bajarishga majbur etadi. Majdiddinning onasi mashxur tabiba bo'lgan ekan, u o'g'liga raxmi kelib, shayxga odam yuborib: "Iltimos, mening o'g'limni kiynamasinlar, agar o'sha ishlarni kiladigan xizmatkor kerak bo'lsa, men o'nta turk g'ulomlaridan yuboray, Sizga xizmat qilsin", - deydi. Najmiddin Kubro ayolga javoban, "Ajab, sen o'zing tabib ekansan, ayt-chi, o'g'ling kasal bo'lsa dorini o'zi ichishi kerakmi yoki uning o'rniga turk g'ulomlari ichadimi?"¹

Zikr etilgan mazkur talablarning barchasi bosqichma-bosqich qalbni poklash, shuurni Xaq tomon rostlab borishga karatilgan. "Al-usul al-ashara" XIII asr falsafiy tafakkuriga kuchli ta'sir etgan, Sharq falsafasini bir pog'ona yuqori ko'targan teran falsafiy asardir.

¹ Ўша манба 64-бетлар

Nafsining zalolatidan qutulgan va ruxi jismidan ustun bo'lgan inson namoz, ro'za, zikr kabi kundalik vazifalarni xech bir malollik sezmay, xuzur kilib qalb irodasi bilan ado etadi. Bo'lajak voqealarning takdir ekanligi xamda kismatni Allohning irodasi deb bilgan inson Alloh bergan rizqqa kanoat kilib, har bir ishda Allohni o'ziga tayanch-madadkor deb biladi.

Allox ismlarini qalbiga naqshlagan insonni Allox qo'rquvidan boshqa hech bir qo'rquv iztirobga solmaydi. Allox uning barcha amallarini boshqarishi, yaxshilik xam, yomon lik xam Alloxdan ekanligini anglagan inson butun inon-ixtiyorini Allohga topshiradi, Allox uchun yashaydi, Alloh uchun odamlarga yaxshilik kilib, Allox uchun yomonlikdan saqlanadi.

Bundan ko'rinadiki, agar Allox o'zi tanlagan insonga Uzini tanit-sa, unga muxabbatni ham, qo'rquvni xam, yo'qotishni xam, boylikni xam, kambag'allikni xam sezmaydigan kilib ko'yadiki, uning uchun ular hech bir ma'noga ega bo'lmaydi. Ma'rifat orkali Allox va inson o'rtasidagi pardalar ko'tariladi.

Najmiddin Kubro inson ma'naviy kamolotida diniylik va dunyoviylikni bir-biriga bog'lashga intilgan. Shayx axloqiy barkamol, yetuk kishilargina ilohiy kudratni bilishga yaqinlasha olishini e'tirof etgan holda, muridlarini o'n qoida asosida komil inson qilib tarbiyalab, ma'naviy ufklarni zabt etgan. Haqiqiy baxt-saodat insonning ichidadir. Baxtu saodat insonning mol-dunyasining ko'pligida xam, amalu martabasining kuchida ham, farzandlarining ko'pligida xam, foydali manfaatda xam, moddiy farovonligu to'kin hayotda emas. Vaxtu saodat - ma'naviy boylik bo'lib, inson nafsining pokligi, qalbining xotirjamligi, dilining kengligi va vijdonining tozaligidir, uni ko'z bilan ko'rib bo'lmasa xam, uning moxiyati o'n qoidada mujassamdir. Agar baxt-saodatni daraxtga qiyos etilsa, uning unib o'sadigan joyi insonning nafi va qalbi, uning suvi, ozuqasi, xavosi va yorug'ligi Allohga ishonchdir.

Rivoyat qilinishicha, zolim kishi ko'l ostidagi mazlu mga: "Seni al-batta badbaxt qilaman" deb dag'dag'a qilgan. Mazlum esa xotirjamlik bilan: *"Meni baxtiyor silishga kuchingiz etmaganidek, badbaxt silishga ham hurbingiz*

etmaydi" deganida zolim dargazab bo'lib: "Qanday silib surbim etmas ekan, boyligim etarli, aytganim aytgan, deganim degan, istasam seni xohlagan ko'yimga solishim mumkin", - debdi. Mazlum esa komil ishonch bilan: "Siz hamma narsaga egalik silsangiz ham, bir narsaga egalik kila olmaysiz. Mening iymonim salbim ichida. Kalbimga egalik silishga Robbimdan boshka xech kim-ning kuchi etmaydi. Rizq xam, jonimiz xam Alloxning izmida", - deb javob beribdi. Zolim o'zining naqadar ojizligini anglab etibdi.

Odam farzandi egalik qila olmaydigan, berilgan kishisidan tor-tib ololmaydigan saodat "al-usul al-ashara"dirki, uning sururini his etgan inson shunday deydi: *"Biz bax-tu saodatda yashaymiz. Agar buni podshohu sultonlar bilganlarida edi, unga egalik silish uchun ustimizga silich ko'targan bo'lar edilar!"*¹

Tarikat maqomlarini bosib o'tgan valiyda ilm (ma'rifat), hilm (yum-shoklik, tavo'zu'), takvo (xar jihatdan parxezkorlik), sahv (xatolarni anglash), shukr (Alloxning ne'matlariga shukr kilish), sidk (rostgo'ylik), vafo (axdga sodiqlik), rizo (Allox takdiriga rozi bo'lish), safo (ko'ngilni sof etish), ishq (muxabbat) kabi sifatlar mujassam bo'lgan.

Vujud pokizaligi. Poklik iymondandir. Payg'ambarimiz (s.a.v.) xam poklik mo'minning aslahasi ekanini aytganlar. Vujud, kalb va niyat pokligi insonni yuksaltiradi. Vujud kancha pokiza bo'lsa, iymon shuncha nurga to'lishadi. Qur'onda "Darxaqiqat uni (o'z nafsini, jonini iymon va taqvo bilan) poklagan kishi najot topdi"¹ deyilgan. Suv chinakam mo'jizaki, poklik suv bilandir. Vujud pokizaligi uzluksiz davom etsa, insonda rabboniy nur bark uradi.

Xilvat. Insonning o'zi yolg'iz qolganda uning asl xoli namoyon bo'ladi. Xilvatga kirgan inson tuyg'u a'zolarini jilovlaydi, faoliyatdan to'xtaydi, xar bir amalini sarhisob kiladi, qilgan gunohlar uchun tavba qiladi va istig'for aytadi. Xilvatda sokin bo'lgan inson odamlar orasiga qaitgach, o'zini idora kilishi murakkab jarayondir. Yolg'izlikda ibodatning ham ta'siri o'zgacha bo'lgani holda,

¹ Ўша манба 68-бетлар

¹ Алоуддин Мансур. Қуръони карим маъиоларининг таржимаси. Т. 1992. 631-бет

odamlar orasida vaziyat boshqacha tue oladi. Rivoyatga ko'ra, ikki valiylik maqomiga erishgan, soxibkaromat aka-uka bo'lib, biri shaharda kosiblik, ikkinchisi tog'da cho'ponlik qiladi. Uka qo'ylarning sutini ro'molchaga tugib, akasining oldiga keladi va sutni ustunga bog'laydi. Aka-uka hol-ahvol so'rashgach, do'konga bir ayol kelib, poyabzalini tikib berishini so'raydi. Aka erga qarab, ayoldan poyabzalni olibdi. Ukaning ko'zi ayolga tushibdi va shu zahoti ro'molchadagi sut erga toma boshlabdi. Aka bu xolatni ko'rib, ukasiga: "Ko'zingga kara, nafeingga hokim bo'l, shaharda yashash tog'da cho'ponlik qilish emas", - degan ekan.

Xilvatning fazilati shundaki, inson odamlar orasida bo'lsa xam, yakka holida xam, gunohlar to'lib-toshgan manzilda xam xuddi Alloh huzurida turgandek xis kiladi. Istaklardan xoli bo'lgan, nafs zulmidan ozod bo'lgan, barcha bog'lanishdan uzilgan va yolg'iz Allohga bog'langan inson qalbi ochilishi uchun xilvat bebaho - shifo maskanidir. Tuyg'ularini jilovlagan insonda qalb tuyg'ularining tuynugi ochiladi. Qalb ilohiy nur bilan yorishadi.

Sukut. Insonni zulmat va otashga etaklaydigan narsa uning tili bo'lib, og'izdan chiqqan xar bir so'z uni zalolatga olib boradi. Inson ko'p gapirganida so'zlarida xato extimoli ortadi. Gapirgan sari xatolari ko'payadi, gapirmasa, tafakkuri ortadi, fikrlash qobiliyati o'tkirlashadi.

Inson sukut orqali juda ko'p fazilatga erishadi, eng avvalo munofiqlik va yolg'onchilikdan qutuladi. Inson qachonki bexuda gap-so'zlardan kechib sukut qilsa, qalb kalomini eshitadi. Til gapira boshlasa, qalb sukut saqlaydi. Qachonki til sukut saqlasa, kalb so'zlay boshlaydi.

Ro'za. Shayton o'qlaridan qutulishning vositasi ro'za ekanki, nafs va shayton bilan mujodala qilgan kishi uchun ro'za kalqon vazifasini o'taydi. Ro'za vujudagi suv va tuproqqa oid narsalarning kamayishiga ta'sir etadi, qalbni g'ubor, kir va chirkinlikdan tozalaydi. Me'da, qorin bo'shaganda insonda ma'naviy bir hol vujudga kelib, kalb yumshaydi, muloyimlik paydo bo'ladi.

Zikr. Qalbni nurlantiradigan va qalb koʻzini ham nurga toʻldiradigan vosita davomli zikrdirki, qalbga ulashgan zikrdan otash paydo boʻladi. Bu otash Allox bilan banda oʻrtasidagi barcha pardalarni kuydirib, zikrni Unga etkazadi. Hadisda ham *"Alloh bilan banda orasida nur va zulmatdan maydonga kelgan etmish ming parda bor. Agar bu pardalar ochilsa, vajhining nuri hamma yosni kuydirib, kul silib tashlaydi"* deyilgan.

Taslimiyat. Insonning barcha istak-xohishlaridan voz kechib, faqat Allohning irodasiga boʻysunishi, qar bir ishda ixtiyorini Alloh hukmiga havola etishi taslimiyat talablaridir. Taslim boʻlgan, samimiyati koʻp boʻlgan insongina koʻzlagan maksadiga eri-shadi. Taslimiyat boʻlmas ekan, uning barcha saʼy-qarakatlari befoydadir. Qalbdagi rizo, taslim kabi snfatlar qaror topsa, inson qar bir ishda oʻz ixtiyorini Allox hukmiga xavola etadi, Alloxga boʻysunadi va shirkdan xoli boʻladi.

Xotirani poklash. Insonning barcha yomonliklardan asraydigan narsa xotirani poklash, xamisha Allox yodi bilan yashashdir. Qachonki, kalbda Allox zikri muqim boʻlsa, shayton u erga kira olmaydi. Aytiladiki, shayton xartumini moʻminning qalbiga sanchadi. Agar kalbda Allox zikri boʻlsa, darrov xartumini tortib oladi, aks holda kalbda kii, adovat, dushmanlik, xasad, koʻrolmaslik kabi illatlarni ildiz orttiradi. Nafsni inson ichki olamining sultoni deydilarki, uning lashkari havoyi orzular, shaxvat, xayvoniy ruxdir. Inson avval oq-qorani yaxshi bilmagani, Alloxning xikmati va rahmatini anglamagani uchun adashadi. Xotirani poklash uchun shayton vasvasasidan ozod boʻlish kerak. Nafs shu vaqtda insoniy kolipda toʻngʻiz xirsi, tulki xiylasi, maymun ehtirosi, eshak shaxvati, boʻri fitnasi, xoʻkiz orzusi, shayton makri va xasad otashi bilan toʻlib toshadi. Inson bularni engish uchun badan uyini riyozat bilan tozalashi lozim boʻladi. Qachonki, qalb shayton xukmlariga taslim boʻlmasa, nafsda solimlikka erishsa, qoʻpol va yomon xulqlardan yiroklashsa, xotiraga putur etmay-di, aks holda gunohlardan insonning qalbi kirlanadi. Inson shubhali narsani tark etish orqali kalb pokligiga erishadi. Asl fatvo beruvchi mufti emas, insonning oʻz kalbidir.

Pir. Insonning maqsad sari orishmay intilishida g'oyaviy rahnamo bo'lishi lozimki, pir insonning nafsini tarbiyalash yo'li bilan uni ma'rifatga olib chikish va komil inson darajasiga etkazadi. Pir shogirdga kalbni qoraytiradigan narsalar ko'p eyish, ko'p so'zlash va ko'p uxlash ekani, nafsni isloh etish uchun me'yorida ovqatlanish, oddii kiiinish, mazmunli umr kechirishga e'tibor qaratadi, foydali va zararli narsalarni tanitadi.

Uyqu. Riyozat vujudni toliqtirsa, uyqu badanga rohat beradi, insonning orzu-istaklarini orttiradi. Shuning uchun qam riyozat va uyqu o'zaro ziddir. Uyqu shunday bir holatki, vujudni isloh kilish, foydalarni egallash, zararlarni daf qilish uchun g'ayrat ko'rsatadi. Kishi uyg'oq ekan, rux badanda xibslanadi. Inson uxlashi bilan ruh xam asliy vatani - laduniy, ilohiy manbaga parvoz kiladi. G'ayb va ma'nolar olamni tanishdan, ruxlar bilan mulokot qilishdan rohatlanadi. Tush inson xayotining ajralmas qismi bo'lib, insonni xissiyot olami mushohadasidan barzah (abadiy dunyo) olami mushohadasiga bog'laydi. Hadisda "Solih kishining tushi nu-buvvatning qirq olti juzidan bir juzdir" deyilgan. Tush ta'birining siri ham ana shundaki, inson ruhi boshqa inson (vafot etgan, xayot bo'lgan, hali tug'ilmagan) ruhi bilan mulokrt kiladi. Bu esa tushda aks etadi.

Qachonki, inson mujoqada orqali istirohat va uykuni tark etar ekan, tuprok, suv, olov va havodan iborat to'rt unurning ustunligiga barqam beriladi, ular erib bitadi va yo'q bo'ladi. Qalb bu pardalardan sidirilib sof holga kelishi bilan basirat ko'zi bilan o'n sakkiz ming olamni sayr kiladi.

Taom. Inson eyish-ichishda o'rta yo'lni tanlashi lozimki, qaddan tashqari och qolmaslik va to'yish darajasidan xam ortik emaslik kerak. Ruhiy ofat va balolarning xammasi to'qlik va ochko'zlikda, xayru baraka och korindadir. Hadisda ham: *"Inson farzandi to'ldirgan eng yomon qop qorindir"* - deyilgan. To'qlik qalbning kattiqlashuvi va pardalar-ning kalinlashuvi, mushoqadaning su-sayishi va mujohada o'rnini tanballik va dangasalik egallashiga olib keladi. Ibodatga to'sqinlik kiladi. Shubhali taomlardan

saqlanish va qalbni ofatlardan asrash natijasida qalb xotirjam bo'ladi, rohatlanadi. Xotirjam qalb egasining duolari ijobat bo'ladi.

Vaqt. Moziy bilan iktikbol orasidagi ma'naviy holdirki, vaqtni keskir qilichga o'xshatadilar. Vaqt kimiyodir. Inson qachonki, vakt bilan barobar yursa, o'tmishga ham, istiqbolga ham nazar tashlamasa, o'tmish yoki kelajagini o'ylab o'sha ondagi vaqtini behuda ketkazmasa, vaktini muxofaza qilsa, maksadiga erishadi. Vakt insonning eng kimmatbaho mulkidirki, vaqtdan ortda qolgan inson umri afsus va nadomatga to'ladi. Inson hayotidagi eng og'ir yo'qotish vaqtni boy berishdir. Inson tabiati qiziq: boyligini yo'krtsa, xafa bo'ladi, lekin umri zoe ketganiga parvo kilmaydi. Shayx Kubro buyukligining sababi shundaki, shayx vaqtni o'z qo'lida maxkam ushlagan edi.¹

“Ofoq va anfus” falsafasi: Najmiddin Kubro qarashlarida ilohiy olam va insoniy olam o'rta-siagi munosabatlar etakchi o'rinni egallaydi. Shayx Kubroning tasavvufga olib kirgan yangiliklaridan biri "ofoq va anfus" nazariyasidir. "Ofok" - ufq, osmon bo'lsa, "anfus- ruh, jondir. Bu ta'limot olami kabiyr (katta olam) va olami sag'iy (kichik olam) munosabatlariga asoslangan bo'lib, unga ko'ra, insonni qurshab olgan tashqi dunyo olami kabiyrdir. Insonning o'zi esa olami sag'iydir.

“Ofoq va anfus” falsafasi. Najmiddin Kubro fikriga ko'ra, tashqi dunyoga xos hamma narsaning na-munasi insonda mavjuddir. Masalan, insonning gavdasi er yuzining, ruhi samoning, qalbi tog'larning, bilimlari jannat mevalarining, ko'ngilda uyg'ongan fayz va ilhom yomg'irning, nafs qorning timsollaridir. Qur'on oyatlari insonning botiniy dunyosida mavjud, faqat basirat ko'zi bilan ko'rish mumkin. Anfusiy olamni anglamasdan turib, kamolotga erishib bo'lmaydi. "Anfus" - "ofoq"ni, ya'ni olami sag'iy olami kabiyr, ilohiy olam va moddiy olamning barcha xusu-siyatlarini o'zida aks ettiradi.

Inson ma'naviy-ruhiy kamolotga erishsa, Allohning "Rahim" va "Rahmon" sifatlaridan boshqa barcha sifatlarini egallay oladi. Najmiddin Kubro inson zakovati va akliy-vajdiy qobiliyatiga yuksak baho beradi: *"Valoyat (valiyluk) odam bolasiga azaldan nasibadir, chunki odam Parvardigorning suygan maxlutsi,*

¹ Исҳоқова Замира. Шайх Нажмиддин Кубро. Тошкент., “O'zbekiston”. 2013. 72-76-бетлар

Parvardigor odamga ahl bergan, botiniy nur bergan, uni barcha mavjudotdan afzal hilib yaratgan".

Qachonki, aql, dil va tadbir chirog'i insonning nafsiga qaratilsa, nafs taslim etilib, poklangunga qadar kechgan botiniy jarayondan so'ng poklangan va sokin nafs ziynatlanadi. Shu tariqd inson qalbi shaffof ko'zguga aylanadi. O'sha onda unda hamma narsa kalb ko'zgusida aks etadi. Qalbdan atrofga ilohiy nur porlaydi, basirat ko'zi ochiladi. Basirat ko'zi orkali Alloxning jamol va jalol nurlari jilvalanadi. Bunday xolatdan insonning go'zallik idroki va ishtiyoqi tubdan o'zgaradi. Shu tarika inson hamma erda va xamma narsada Yaratuvchisini mushoxada qilib, U sari talpinadi. Buning sababi esa nafsning poklanib, siyratdagi barcha kusur va kamchilik va yomonliklarga barxam berilganidir. Bu qarashlar tariqat kubrosi bo'lgan Najmiddin Kubroning qarashlari mag'zini tashkil etadi.

Najmiddin Kubroning "ofiq va anfus" ta'limoti nasaflik shayx Aziziddin Nasafiy tomonidan rivojlantirilib, "Zubdat ul-xakoyik" ("Haqiqatlar qaymog'i") asarida olami kubroni bilishda shariat, xikmat va tavhid ahli so'zlari qiyoslangan¹.

Insonning vazifasi ma'rifatga intilish, ma'rifat nurlari bilan to'lishish va musaffolik sari intilish ekan, insonga berilgan qobiliyat qancha bo'lsa, qancha kuch sarflasa, uning maqomi shuncha baland bo'ladi. Xar bir insonning maqomi uning ilmi va amallariga munosibki, o'z ruxini oliy nuqtaga olib chiqq olgan va "ofiq olami" bilan aloqa bog'lay olgan xar bir inson ma'rifat maqomining eng so'nggisigacha eta olar ekan.

"Ofiq va anfus" falsafasiga muvofiq, inson rux va jism, ilohiy va moddiy olamlarni birlashtiruvchi, shuningdek, o'zini o'zi va Yaratuvchisini taniydigan zot ekan, uning vujudida olam vujudi mujassamdir.

Inson kanchalik ma'rifatli bo'lsa, u shuncha insoniydir. Bunday inson olamdagi barcha jonzotlarga mu-xabbat bilan munosabat ko'rsatadi. Atrofga ziyo taratib, o'zgalar ruxini xam ma'rifatli kiladi. U tufayli ko'ngillar

¹ Бу ҳақда қаранг: З.Исҳокова. Офок ва анфус фалсафаси // "Ҷамият ва бошқарув". 2005. № 2. 93-96-бетлар.

nurlanadi, ezgulik sari chog‘lanadi. Najmiddin Kubro shaklga emas, mohiyatga e’tibor qaratgan, ya’ni shayx uchun yagona maqsad barchaning pok niyatini birlashtirish va yagona vujud vasliga muyassar etish edi.

2.2 Najmiddin Qubroning “Latoif” nazariyasi va uning bugungi kundagi ahamiyati

Najmiddin Kubro ruhoniylar kechinmalar, nozik holatlarni tahlil qilib, "latoif" nazariyasini ishlab chiqqan. Najmiddin Kubro inson ruxi ko'zga ko'rinmas beshta latif markazlardan iboratligini ta'kidlab, u ong va tuyg'u, ruh va jism orasida joy-lashgani uchun "latif markaz"lar nozikligidan ilg'ab olish mushkulligini e'tirof etgan.

"Latoif" - "kalb", "rux", "sirr", "xafiy", "axfo" deb atalgan. "Latoif" - tuproq, suv, havo, olov xamda nafsga nisbat berilib, nafsning asli - "qalb"ning, xavoning asli "ruh"ning, suvning asli "sirr"ning, olovningasli "xafiy"ning, tuproqning asli "axfo"ning aslidir. "Rux"ning o'zni o'ng siynaning ikki barmok osti, "sirr"ning o'zni chap siynaning ikki barmok yukrrisi, "xafiy"ning o'zni o'ng siynaning ikki barmok ustida, "axfo"niki esa ko'ksning (ko'krak) o'rtasidadir. "Latifai nafs" - ikki ko'zning o'rtasida joylashgan bo'lib, riyozat davomida "latoif" tur li shakl, rang, xolatlarga o'zgargan. Najmiddin Kubro inson xayotida bu "latif" markazlarning axamiyatini alohida kayd etib, kachonki inson shu markazlarni o'tkirlashtirib, ilg'ab olsa ilohiy xislat ne'matiga erishadi, ya'ni "latoif" insonning iloxiy xislatidir.

Najmiddin Kubro nazarida "nuq-ta", "dog'" va "doyra" inson ruhiy holatlari o'zgarishida muxim xizmat kiladi. "Doyra" - falak doiralari-ning aylanishi, "dog'" - dunyo timsoli va "nuqta" - vaxdat bo'lib, "doyra" to'xtovsiz aylanib turadi va "dog'"ni xam o'z ichiga oladi. Ammo ular markazga tomon, ya'ni, "nuqta" sari in-tiladi. "Nuqta" moxiyatini anglash orqali Alloh olamini idrok etsa bo'ladi. Inson ruxi, shuningdek, hayajonlar, xayratlar ichra tur li ranglarga ham duchor bo'ladi. "Doira", "dog'" va "nuqta" aylanishi va almashinishi ranglar almashinishini ham qamrab oladi: ruxning xislar bosqichidagi tarakdiyoti kora rangda, keyin qizg'ish rangda kechadi. So'ngra yashil rang ko'rinib, iloxiy olam-ning yaqinligidan dalolat beradi. Shunday qilib, ranglar inson ruxiy holatlari, Allox tomon safaridagi daraja-bosqichlarini bildirib turadi. Ranglar xilma-xilligi va

alma-shinib turishi inson ruxiy xolati, shuuriy kechinmalarining davom etayotganini ifodalaydi.

"Talavvun" bosqichi, ya'ni botiniy-tafakkuriy kechinma-o'ylar turli-tuman bo'lib, ruxning rangdan-rangga ko'chishi rivojlanishidan nishona hisoblanadi. Bu jarayon oxir-oqibatda rangsizlik holatiga, ya'ni "tamkin"ga olib keladi. "Tamkin" holatiga kirgan inson "talavvun"dan (rang-baranglikdan) kutulib, bir xillik, ya'ni "vahdat olami"ga qo'shilgan bo'ladi.

Bu xolatni ranglar tilida ifodalaydigan bo'lsak, zangori rang insonning tavba qilib, tariqatga qadam ko'yganda ko'rinadi. Bunda u shariat doirasida bo'ladi, aqliy tafakkur, mantiqiy-daliliy bilishdan hali qutulmagan, ko'nglida dunyoviy havaslar mayli xukmron bo'ladi. Bundan keyin tariqat boshlanadi. Inson qalbida muhabbat qo'zg'alib, Alloh yodi bilan yashaydi va bu sarik rangga to'g'ri keladi. Qizil rang insonning ruxi vujudan ajrala boshlashi, ma'rifatga yaqinlashgani, ma'naviy mohiyatlar olamini anglashini bildiradi. Ammo bu bosqich hali nafsu xirs qutqusidan to'la xalos bo'lmagan bir holatdir. Qachonki oq rang ko'rinsa, bu yurakning poklanishiga ishoradir va shundan so'ng haqiqatni anglash boshlanadi. Inson bunda hakdqt olamidan xabardor bo'lib, "tavxid" holatini boshidan kechiradi. Shundan keyin yashil rang keladi. Yashil rang valiylikdan nishona. U sirlarning siriga, g'aybga oshnolikni bildiradi va insonning asl mohiyatga etishganini xam anglatadi. Mazkur ranglar insonning Allox tomon va Alloh bilan ruhiy safarlarini anglatgan bo'lsa, oltinchi rang - kora rang Allohdan xalq sari safarini bildirib, "kanz ul-asror" sirlar xazinasini egal-lashni va hayratga g'arq bo'lishini ifodalaydi. Hayratdagi rux shari-atning mag'zi-hikmatini boshqatdan idrok etib, qorong'i bir dog' rangiga o'raladi. Va nixoyat, inson ruhi yana Allox huzurida paydo bo'ladi. U qora rangdan qutulib, rangsizlik holatiga kiradi. Ma'naviy kamolotning oliy darajasini egallagan orif insonda bir ranglilik xolati paydo bo'lgan.

Najmiddin Kubro ranglar xislatini etti tushunchaga moslab tushuntirgan. Uningcha, oq rang - islomni, sariq rang - iymonni, zangori rang - ehsonni, yashil rang - itminon (ishonchni)ni, ko'k rang - iqon (to'liq ishonch)ni, qizil rang -

irfonni, qora rang - xayajon (hayrat)ni anglatgan. Inson ruhi xolatlari, qaysi rang ko'z oldida namoyon bo'layotgani uning pir-murshidiga ayon bo'lgani uchun, ruhiy taraqqiyotning qaysi boskichda ekaniga karab pir unga yangi vazifalar yukla-gan.

Najmiddin Kubroning rang va shakllar xaqidagi qarashlari keyingi so'fiylar tomonidan rivojlantirilgan. Ranglar tartibi o'zgargan bo'lsa ham, aynan qora rang xayrat belgisi xisoblanib, inson ruxining "fano" (yo'qlig)ga g'ark bo'lishi holatining ramzi sifatida ko'rsatilgan.

Najmiddin Kubro inson ruxiyatining imkoniyatlari, uning yaratuvchanlik va mo'jizakorlik quvvatini valiylik, karomat tushunchalari orqali bayon etganki, qariyb etti yuz yildan so'ng Ovro'pada bu xolatlar keng o'rganilib, inson xislari, aqlidan tashqari yana bir kuch borligi hamda u odamning bexudligi davrida ilxom bilan qo'lga kiritilishi mumkinligi haqidagi nazariyalar ilgari surildi va yangi bilimlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida falsafa tarixida inson, uning mohiyati, hayotning mazmuni, insonning ruhiy holatlari kabi muammolar A.Shopengauer (vaf. 1860 y.), F.Bredli (vaf. 1924Y.), K.Yaspers (vaf. 1969Y.), Z.Freyd (vaf. 1939 y.) tomonidan tadqiq etilgan.

Aslida ilmga chanqoqlik inson tabiatining bir bo'lagi bo'lib, ko'pincha ilmga mukkasidan ketib umrini ilmga bag'ishlagan olimlar "ilm fan g'aybning pardalarini yirtishi shubxasiz" deb e'tirof etgan holda, g'aybning pardalari tuganmas ekanini ko'rib ojiz qolishgan va bir umr "haqiqati yo'q sarob"ning ortidan kuvib yurganlarini anglab, qayotlari so'ngida ko'p narsani bilishlik bilan o'z g'amlarini ziyoda qilganlaridan hasrat qilishgan. Ingliz olimi B.Rassell inson ilm-fan yordamida tabiat bilan bo'lgan kurashida g'alabaga erishgani, ammo o'z nafsini bilan bo'lgan kurashda g'alaba qila olmaganini va nafsni engish uchun "ilm-fan quroli" naf bermaganini, dindan boshka xech bir ilm unga davo bo'lmasligini ta'kidlab, ilmning yuksalishi murakkablikning ortishidirki, "faqat aqlning o'ziga suyanish insonning baxtini barbod qilish uchun etarlidir" degan xulosaga kelgan. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan

hayotning og‘ir muammolarini bus-butun xal qilish imkoni yo‘q, uning echimi iymondir. Iymon inson kalbida hikmat chashmalarini to‘xtatib bo‘lmaydigan darajada qaynab chiqadigan kilib ko‘yadiki, bundan boshqasi bilan amalga oshmasligi anik. Bu rizolik va muhabbatning manbaidir.

Najmiddin Kubro axloq-odobi, ibratli turmush tarzi bilan kalb-larni yorishtiradigan oftob misoli edi. Zero, go‘zal axloq insonning axdiga vafosi, to‘g‘riso‘zligi, adolatligi, saxovatpeshaligi, mehr-muruvvatida aks etadi. Insonning chiroyi so‘zining go‘zalligida, kamoli esa fe‘lining to‘g‘riligidadir. Shayx Najmiddin Kubro xushxulkliklari va go‘zal axloqlari, yuzlaridan nur yog‘ilib turishi, nafslari ustidan hokim bo‘lib, boshqalarning etkazgan ozorini qech bir e‘tirozsiz qabul qilib, ularning qilgan aybu gunohi uchun o‘zlarini aybdor hisoblab, ulardan uzr so‘rashlari, barchaga saxovat va shafqat ko‘rsatib, Payg‘ambar (s.a.v.) hayotlarini o‘zlariga namuna qilib yashaganlari bilan barchaning mehriga sazovor bo‘lgan.

Najmiddin Kubro insonning nafsini tarbiyalash yo‘li bilan uni ma‘rifatli qilish va komil inson darajasiga etkazishni maksad qilib, o‘z tarbiya usulini ishlab chiqqan va eng avvalo insonning e‘tikddi to‘g‘ri bo‘lishiga ahamiyat berib, tasavvuf axloqiga doir "Odob uz-zokiriyn" ("Zikr etuvchilar odobi") asarini yozgan.

Najmiddin Kubro fikricha, til barcha musibatlarning manbai, eng savobli ish kishilarga ozor bermaslik, eng yaxshi boylik - kuchli iroda, ikki dunyoning eng yaxshiligi qanoatda, eng yomonligi tamagirlikda ekan.

Najmiddin Kubro faqirlik va do‘zah isnoddan yaxshiroq ekanligini ta‘kidlab, yashash lazzati, vaktning yoqimlili, kayfiyatning yaxshiligi, ko‘ngilning forig‘ligi, badanning rohati, nafsning sog‘lomligi, tunlarni bedor kechiruvchi Allox bilan munojotlardagi halovatli, shuningdek, qolgan-kutgan non parchalarini yeganda kishi nafsida izzatni va yamalgan hirqalarni kiyganda Tangri huzurida kamtarlikni va har doim hayot sofligini faqirlikda topishi mumkinligini e‘tirof etgan.

Najmiddin Kubro *"dunyo balolari dengizlari"*dan sog'lom o'tishni istagan kishi o'z nafs bilan birga kuyidagilarni bajarishi kerakligi, ular bandalik asosi, xizmat va toat markazi hisoblanishini ta'kidlagan: *"X,alol (lutsma) emots, mahol (imkon-siz ish)ni tark etmots, e'tuod butunligi, sa'y-harakatda soditslik, o'limga tayyor bo'lish, so'ldan ketganiga afsus chekmaslik, boshsalar aybidan ko'z yumib, o'z ayblarini kuzatish, so'zni (behuda so'zlash)ni tark etish, (boshsalarga) ibrat ko'zi bilan boqish, axlotsni pokizalab, yurish-turishni o'zgartirib, odamlar bilan murosayu-madora silish, yolg'on aytishdan chetlanib, tilni rost gapirish va to'grilikka o'rgatish, har soatu har kuni umrni sarhisob silish, tad-birni tark etib, taqdirga tan berish, vahtni bekorga o'tkazmaslik, nihoyat, zarur bo'lmagan holda (birovdan biror narsani) talab qilmaslik, xulq go'zalligiga e'tibor berish"*.

Najmiddin Kubro kachonki, inson nafs istaklaridan voz kechib, ularni tark etar ekan, najotga erishishi, buning uchun shariat xukmlariga bo'ysunish, yomon niyat qilmaslik, hamisha til, dil va badan pokligiga amal qilish, tilni bexuda so'zdan, qalbni shubha-yu gumondan, badanni kirlanishdan saqlash, mashoyixlar so'zini ibrat bilan tinglash, ko'p yig'lash, ko'ngilni qoraytiradigan har kanday amallar-dan voz kechish, umid bilan amal qilish lozimligini ta'kidlagan. Najmiddin Kubro insonning zotiga ko'ra zaif, mag'lub ekanini e'tirof etgan xolda, agar inson chin ixlos bilan g'ayrat kilsa, maksadi ravo bo'lishini ta'kidlaydi: *"Dunyoni ko'r, unda sayr sil, ichiga kir, ammo dunyo sening ichingga kirmasin"*.

Inson nafsini tarbiya qilmaguncha, komil bo'lishi mumkin emas. Zero, aj-dodlarimiz har qanday murakkab, og'ir va tahlikali sharoitda ham o'zligini yo'kotmay, ma'naviy xayot mezonlari, odob-axlok qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun xam barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlab kelmoqda.¹

Avliyolarda zohir bo'ladigan g'ayri-tabiiy odat va karomatlar, avliyolarning o'ziga xos xususiyatlari tush ko'rish, bo'lajak vokealarni oldindan

¹ Исҳоқова Замира. Шайх Нажмиддин Кубро. Тошкент., "O'zbekiston" 2013 92-93-бетлар

bashorat kilish, uzok shaharlardagi yaqin kishisi bilan aloqa bogʻlab soʻzlashish, ruqning jismdan ajralib sayr etishi va qaytib jismga kirishi, oʻzgalar fikrini uqib olish va fikran oʻzgalarga taʼsir oʻtkazish, nafas quvvati, nazar quvvati, dil quvvati, koʻngildan oʻtkazish, holatga kirib vujudan nur taratish kabilarda namoyon boʻlganki, Shayx Najmiddin Kubro xam karomat koʻrsatish va xorikulodda xislatlari bilan mashxur boʻlgan. Najmiddin Kubro oʻtkir nafasi, nazari va suxbati bilan qalblarga gʻulgʻula solgan. Bu zot "*valiytarosh avliyo*" deb ulugʻlangan.

Suhbat fayzi. Najmiddin Kubro suhbatining oʻzi ayni karomat boʻlib, undan baxramand boʻlib, fayz olganlar oʻzlarini oʻzga olamda his etishgan, iloxiy bir qudrat bilan tubanlikdan yuksaklikka koʻtarilishgan, martaba-maqomga erishgan. Suhbat orqali koʻngillarda muhabbat asari paydo boʻlgan.

Nazarning oʻtkirligi. Najmiddin Kubro qalbida ilohiy ilxom "gʻalaboti vajd" qoʻzgʻalganda, uning nazari kimga tushsa, valiylik xislatiga ega boʻlgan. Xonaqohga tomosha uchun kirib kelgan bir savdogar Shayxni vajd holatida koʻradi. Najmiddin Kubroning muborak nazari savdogarga tushgach, savdogarning xolati oʻzgarib, qalbida valiylik nurlari paydo boʻladi va sulukka kiradi. Shayxning bashorati bilan tariqatdan nasiba topib, oʻz yurtiga borib, tariqatdan soʻz ochadi...

Bir kuni Shayxning muborak nazari saʼvani kuvib borayotgan qarchigʻayga tushadi va shu zaxoti qarchigʻay holsizlanib, saʼva esa jurʼatlanib orqasiga qaytadi va qarchigʻayga tashlanib, uni engadi. Qarchigʻayni tutib, Shayxning oyogʻi ostiga keltirib tashlaydi.

"Nasoyim-ul muxabbat"da yozilishicha, Ashobi Qahf bilan gʻorga kirib, jannatliy boʻlgan it haqadagi oyatlar tafsirida Saʼdiddin Hamaviy soʻz olib, "*Bu zamonda andots kishi boʻleaykim suxbati itga asar silgay?*" deganda, SHayx Najmiddin Kubro "*Karomat nuri bila maʼlum sildilar va soʻpib xonatsoh eshigiga borib turdilar*". Shu payt xonakrhga bir it kirgan va shayxning nazari itga tushib, it oʻz xolida "*mutahayyir va bexud boʻlub*" boshini erga qoʻygan. Boshka itlar uni tavof kilgan kabi atrofida yurgan. It xonakoxdan ketmay, shu erda oʻlgan. Shayx uni izzat-ikrom bilan dafn ettirgan.

Voqealarni oldindan ko'rish. Najmiddin Kubroning suyukli muridlaridan biri Majdidsin Bag'dodiy darveshlar bilan o'tirganda bexudlik xolati yuz berib, *"Biz o'rdak tuxumlari edik, shayximiz Najmiddin tovuts edi, bizni ochdi, biz daryoga harab yo'l oldik, u esa sireotsda holdi"* deydi. Bu so'zlardan voqif bo'lgan Najmiddin Kubro xafa bo'lib: *"O'sha suvda garq bo'lib o'l"* deb, Majdiddinni duo-ibad kiladi. Ko'p o'tmay Xorazmshoh Majdiddinga g'azab kilib, uni Amudaryoga cho'ktirib o'ldirishga farmon beradi. Voqeadan xabar topgan Najmiddin Xorazmshohdan ranjiydi. Xorazmshohning halokati, mo'g'ullarning bostirib kelishi va obod shaharlar vayron qilinishini qalb ko'zi bilan ko'radi. Xorazmshoh kilgan ishidan pushaymon bo'lib, tuhfarlar bilan Shayx oldiga kechirim so'rab kelganda, Shayx Kubro shafqat qilmaydi: *"Endi kech bo'ldi, farzandim Majdiddin soni jamiki el-avloding, mol-mulkingni berganingda ham yuvilmaydi, sonni son yuvadi"*, - deydi. Bu karomat tezda sodir bo'ladi va Xorazm vayron bo'ladi. Xorazmshohning xech bir avlodi tirik qolmaydi.

Muroqaba yo'li bilan o'ziga murid tanlash. Shayx Najmiddin Kubro qalbida valiylik nishonasi bo'lgan odamni g'oyibona tanigan. Bir kuni shayx Kubro muroqaba orkali Turkiston diyorida muftiy Mavlono Shamsiddinning Ahmadi Mavlono degan farzandini muridlikka qabul qiladi va muridi Bobo Kamol Jandiyga xirqa berib, uni xonaqohga olib kelishni buyuradi. Bobo Kamol xirkani olib Turkistonga jo'naydi. Bolaning otasi o'g'lining yoshi kichikligi va kasalmandligini, katta o'g'li esa baquvvat ekanini aytib, avvaliga rozi bo'lmaydi. Lekin Bobo Kamol piringing aytganini kilib, bolani olib keladi.

Axmadi Mavlono katta ixlos bilan shariat va tarikat ilmlarini o'zlashtirib, iste'dodini namoyon kiladi va tariqat peshvolaridan biriga aylanadi. Yurtiga borib, tariqatdan so'z ochadi va akasini xam tarbiyalaydi.

Turkistonlik Aynuzzamon Jamoliddin Shayx Najmiddin Kubroning ovozasini eshitib, Xorazmga o'zi bilan kitobu daftarini xam olib kelayotganda tushida shayxning: *"Ey Geyli, orsangdagi yukingni tashla!"*, -degan

soʻzlaridan uygʻonib ketadi va fikr qilib, kitoblarni Jayhunga uloqtiradi. Geylini huzurida koʻrgan Najmiddin Kubro unga qarab: *"Agar ul yukingni tashlamaganingda, keligiing befoyda edi, chunki soʻfiy ilmi kitobda emas, balki salbdadir"*, -deydi.

Keltirilgan rivoyatlar Najmiddin Kubroning oʻzgalarga taʼsir etish, "kuvvai nazari" zoʻrligini, bashorat etish qobiliyatini koʻrsatadi. Najmiddin Kubroday "valiytarosh" ulugʻ shayxning nazari *"tuprohni kimyo silguvchi"* edi. Shu oʻrinda Najmiddin Kubrodagi ilohiy qudrat *"vahshiy Chingiz bossinini saytarib kololmagani, hamda Xorazm lashkariga muborak nazarlari taʼsir kilmagani"* xususida toʻxtash va izoxlash joiz deb xisoblaymiz.

Xorazm oʻt ichida qolganda Shayxning muridlaridan biri unga: *"Na boʻlgaykim, xazrati Shayx bir duo hilsalar, shoyad bu balo musulmonlar boshidan koʻtarilsa?"* - deb soʻraganda, SHayx: *"Bu oʻzgarmas sazodir, uni duo bilan daf kilib boʻlmaydi. Bu Alloxning gunohkor bandalariga yuborgan azim jazosidir"*, - deb javob beradi.¹

Moʻgʻullar Xorazm va boshqa obod shaxarlarda koʻz koʻrib, qulok eshitmagan yaxshiliklar qildilar. Maʼrifat va madaniyat obidalarini yakson boʻldi, yondirildi, vayron etildi. Shunga qaramay, moʻgʻullar maqalliy xalqning dini - islomni kabul qildilar. Vahshiylik botkrgʻidan qutulib, islomiy yorugʻlikka koʻtarildilar va hatto baʼzilari keyinchalik islomiy maʼrifat qomiylari boʻlib maydonga chikdilar.

Shayx Najmiddin va uning xalqi engilgani yoʻq, aksincha, moʻgʻul lashkari engildi, yoʻk boʻldi. Shayxning "quvvai nazari" maʼrifat va maʼnaviyat kudrati edi.

Shayx Najmiddin Kubro tasavvuf-ga yuksak ijtimoiy-axloqiy gʻoyalar mujassami boʻlgan futuvvat (yigitlik, mardlik, javonmardlik, saxovat, tasavvuf axloqi)ni olib kirgan. Futuvvatning asosini nafsni engishga qaratilgan tartib-qoidalar tashkil etgan. Umrni doʻstlar xizmatiga bagʻishlash, faqat yaxshilikni oʻylab, yaxshilik qilishdan charchamaslik, borini oʻzgalar bilan baham koʻrish, muxtojlarning xojatini chikarish, piru-ustozlar, doʻst-birodarlar nomusi, sharafini

¹ Ўша манба 99-бет

himoya etish, zohiran va botinan pok yurib, halol-pokiza insonlar suhbatida bo'lish va ular mehrini qozonish kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan kishilar javonmardlar deb atalgan. *"Javogshardlikning asosiy fazilati manmanlikni bosh-dan chikarish va o'zgaga hasd kilmaslik bo'lib, javonmardlar ko'zni yomon na-zardan, qo'lni yomon ishdan va tilni yomon so'zdan saqlaganlar.*

Futuvvatchilik harakati X-XI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda keng yoyilgan. Futuvvat ahlining yo'rig'i, koidalari, pir-shogirdlik rasm-rusumlari, muridga rahnamolik qilish dasturi, futuvvatning zikri va bu sifatga musharraf kishilarning so'zlari xakida risolalar yozilgan.

SHayx Najmiddin Ko'bro kishilar axloqida saxiylik, mehr-oqibat, futuvvat, xurmat, insoniylik kabi fazilatlarni mujassamlashtirishga intilgan. Inson uchun qayg'urish, uning ma'naviy kamolotini o'ylash, uning jamiyatdagi o'rni, nafs tarbiyasi uchun kurash, o'zlikdan kechib, o'zgalar hojatini chiqarish maqsadida shayx Kubro faqr, saxovat va futuvvat keng targ'ib etgan. Shayx Kubro fikricha, xalqqa xolis, yuksak ma'rifat va diyonat maqomida xizmat ko'rsatmagan, Hak va xalq odobini saklamagan inson kamolotga erisholmaydi.

Shu o'rinda faqr xususida to'xtalsak: insonning bu dunyoga kelishi-dan maqsadi o'zligini anglashi, Haqni tanishi va bilishi, Allohga haqiqiy bandalik qilishidir. Tasavvuf mol-dunyo, boylikka qarshi bo'lmagan, so'fiylar ichida boy ham, kambag'al ham bo'lgan. Aksincha, asosiy e'tibor qalbga qaratilgani, umrni arzimas va o'tkinchi narsalar, hoyu-havaslarga sarflashga qarshi bo'lgan. Tarixda ilm ahli, shuningdek, so'fiylarning xam savdo-sotiq ishlari bilan mashg'ul bo'lgani, maqsad boylikka ko'ngil qo'yish emas, aksincha, mol-dunyo va boy-likning mohiyatini to'g'ri tushunib, uni ezgu ishlarga sarflaganliklari haqida misollar talay.

Boylikning mohiyati shundaki, dildan boylikka mexr ko'rgazmaslik orqali butun olam boyligi qo'lda yig'ilgan holda ham uning ilohiy sirlar manzili uchun yo'l bo'la olmasligini anglashdir. Inson qalbi dunyo ne'matlari

va orzu-havaslarini bilan to'liq bo'lgani uchun ham iloxiy sirlar mazhari bo'la olmaydi. Qalb ozod va ogoh bo'lgach, ma'rifatga yo'l ochiladi.

Najmiddin Kubro inson yaratilish jihatidan barcha mavjudotlardan keyinda tursa ham, mohiyat, salohiyat jihatidan yuksakligini, odamlarning yaxshisi - odamlarga foyda keltiradigani, insonning jamiyat xayotidagi o'rnini alohida qayd etgan. Futuvvat inson ruxini tarbiyalash orkali uni go'zal xulq-atvor, fazilat sohibi qilishni maqsad qilgan. Shunga ko'ra, futuvvat barcha insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etgan yetuk insonlar -mardlar maslagi bo'lgan.

Futuvvat *"xushxulklik va ezgu saxovat"* deb ulug'langan. Faqatgina o'ziga birovning minnatini ravo ko'rmagan va biror kishiga muhtojlik izxor kilmagan kishi javonmard degan nomga loyiq ekanligi qayd etilgan: *"Futuvvat barchani o'zingdan afzal bilish va o'zini hech kimdan yuqori so'ymaslik, barchaga insof-muruvvat ko'rsatish va evaziga esa hech narsa talab kilmalikni targib etgan"*¹.

Javonmardlar bir-birlarining birodarlari hisoblanganlar va boshqalar uchun jonini berishga tayyor bo'lganlar. Arab olimi Ibn Havqal yozishicha, *"Movarounnahr xalkining javonmardligi shu darajada bo'lganki, go'yo barchasi bir xonadonda yashayotganday, birortasi boshkasining uyiga borsa, o'z uyiga kirganday bo'lgan. Juda mehmondo'st va hatto kechasi keladigan mexmondan hijil bo'lmaganlar, musofirni tanimasalar ham hech bir muzd-mukofot kutmay, mehribonlik ko'rsatganlar"*.

XI-XIII asrlarda uch buyuk siymo - SHayx Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Paxlavon Maxmud Xorazm javonmardlari uchun ibrat namunasi bo'lganlar. Futuvvatga doir qarashlar ijtimoiy hayotda ideal hisoblangani uchun Xuroson hududidagi so'fiylar futuvvatdan ta'sirlanib, unga ruhoniy xayotda xam kuchli axamiyat berganlar. Javonmardlar turli xududlarda "shotir", "sar-bador", "axiy", "sukra" nomi bilan mashxur bo'lganlar.

Futuvvatning asosini oddiy xunarmandlar tashkil etgan. Ammo javonmardlar orasida savdogarlar, san'at va adabiyot ahli, amir va amirzoda, shahzodalar ham bo'lgan. Javonmardlikni o'z faoliyatining mazmuniga aylantirgan kishilarning so'zi ham, ishi ham, niyat-fikrlari ham pok bo'lgan, hech kachon boshqalardan

tama qilmagan, ularning insoniy kamoloti va ma'naviy kuvvati saxovat (do'stlarga naf keltirish) va shijoat (do'stlarni dushmanlardan asrash)da aks etgan.

Barcha ezgu axloq futuvvatda mujassam bo'lgan: insof va xaqgo'ylik, fikr jasorati, e'tiqodda sobitlik javonmardlikning talablari edi. Fu-tuvvat tasavvufning teran ideallarini ijtimoiy va iqtisodiy turmushda aks ettiruvchi faol va jonli kuchiga aylangandan keyin mardlik tariqati, o'zaro yordam, muruvvat va mehribonlik ko'rsatish, chinakam fidokorlik namunasi bo'lgan. Jumladan, *"o'z vatanini bossinchilardan ximoya silshida bayroq tutib jon bergan Najmiddin Kubroning saxramonligida... ma'naviy jasorat tuygusi buyuk va ustuvor ahamiyat kasb etgani shubhasiz"*¹.

Javonmardlar xalq ichida yurib, xayrli va savob ishlarni bajarib, o'zaro birodarlik, fidoyilik bilan harakat qilganlar. Javonmardlar kishilar axloqini tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etganlar, ya'ni ularning so'zi, ishi, niyati, fikrlari pok bo'lgan, ezgulik va yaxshilik umrlarining mazmuni bo'lgan. Xalq orasida hozirga qadar futuvvatning ayrim jixatlari yashab kelmoqda. Bundan ko'rinadiki, axloqiy kadriyat va insoniy fazilatlar asrlar osha inson ma'naviy kamolotining mazmuniga aylanib, shayx Najmiddin Kubro kabi zabardast ajdodlarimizga mu-nosib voris bo'lib yashash barchamiz-ning ezgu va sharaflı burchimiz bo'lib qolaveradi.

¹ Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т., "Маънавият", 2008. 163-бет

Xulosa

Shayx Najmiddin Kubroning muborak nafasi Xorazm erini raxmoniy nurga to'ldirib, ilmu xikmat, falsafa, tib, riyoza, tafsiru talqinlar barobarida irfoniy ilmlar ham joriy bo'lib, kishilar qalbiga ilohiy hikmatlar yog'dusi kirib bordi.

Shayx Najmiddin Kubro siymosida tafakkuriy-aqliy bilim bilan botiniy-ma'rifiy bilim, donishmandlik, dunyoviy zakovat billi valiylik kashfiyotlari mushtarak bo'lib, bejiz u zotni avliyo va murshidlarning eng komili, yuksak maqomlar sohibi, tavhid, xaqiqat va qalb ilmlarining bilimdoni deb ta'riflanmagan.

Shayx Farididdin Attor so'z bilan aytganda *"avliyolarga Mehru muhabbatimiz ularning kamoli va jamoliga va barcha holat-ishlariga hurmat-ehtiromimiz natijasidir, Ushbu sadotsat qalblarimizga Alloh solgan muhabbat nuri kabi porloq, buyuk zotlarga ta'zimimizni yuzaga keltiradi. Alloh taoloning muborak nomlarini har zamon tilidan qo'ymaydigan aziz-avliyolar ma'rifatidan bahramand bo'lgan, har qachon na har bir holatda Alloh yodini unutmagan kishilar uchun avliyolar hayoti namunadir"*¹.

Shayx Najmiddin Kubro asos solgan kubroviylik tariqati nafiklt Movarounnahr, balki Eron, Misr, Hindiston, Iroq va Afg'onnstom hududiga ham kirib borgan. Kubroviylik tarikatidan firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, ig'tishoshiya, nurbaxshiya, ne'matulloqiya kabi yangi tariqat shoxchalari o'sib chikdan.

¹ Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё Т., 1997 64-бет

Kubroviylik butun Sharqqa tarqalib, uning iste'dodli muridlari donishmandlik, islomiy xikmat va insoniy poklik, iloxiy ma'rifat g'oyalarini millat va elatlar orasiga yoyib, islomning shuhratiga shuhrat qo'shdilar. Spayx Najmiddin Kubro esa asrlar osha donish va xikmat, irfon va zakovat yulduzi bo'lib porlab turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.1-жилд. Т., «Ўзбекистон»,1996.

Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. Т., «Ўзбекистон», 1996.

Каримов И.А Хива шахрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи "Халқ сўзи". 1997 йил 21 октябрь.

Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998.

Каримов И.А . Аллоҳ қалбимизда юрагимизда. // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т., “ Ўзбекистон ”. 1999. 7-жилд.

Каримов И.А.Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз Т.9. - Т.,2001

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Т.: "Ma'naviyat", 2008.

1. Алишер Навоий. Насойимул-маҳабба. 20 томлик, 17-том, Т., 2001
2. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари // Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Ҳикматуллаев, А.Мансуров. - Т.: "Фан", 1990.
3. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. - М.: "Наука", 1965.
4. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёхати /"Шарк баёзи". - Т.: 1993.
5. Ислом тасаввуфи манбалари. Т., 2005.
6. Ислом энциклопедияси. Т., 2004.

7. Исҳоқова Замира. Шайх Нажмиддин Кубро. Тошкент., “O'zbekiston”. 2013.
8. Комилов. Н Тасаввуф. 1-китоб. Т., 1996.
9. Комилов. Н. Тасаввуф. 2-китоб. Т., 1999.
10. Махмуд Аъсад Жўшон. Тасаввуф ва нафс тарбияси. Н. Хасан таржимаси. Т., 1998.
11. Низомиддинов.Н. Жанубий-Шарқий Осиё: диний фалсафий таълимотлар ва ислом. Т., 2006
12. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Нодирхон Хасан таржимаси. Т., 1999.
13. Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё Т.,1997
14. Хамиджон Хомидий Тасаввуф алломалар Т., 2004 162-бет

